

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK:89+8-1/-14

MAGISTRATURA BO‘LIMI
ADABIYOTSHUNOSLIK YO‘NALISHI
MAGISTRANTI
KARIMOVA GO‘ZALXON ULUG‘BEK QIZINING

“HOZIRGI O‘ZBEK LIRIKASIDA KICHIK SHE‘RIY SHAKLLAR VA
ULARNING MAZMUNGA MUTANOSIBLIGI”

5A120112 -Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar:
Z. Rahimov,
filologiya fanlari nomzodi

Farg‘ona – 2016

Mazkur tadqiqot ishi Fargʻona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar:

Z. Rahimov,

filologiya fanlari nomzodi

Rasmiy taqrizchi:

G. Muhammadjonova,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Tashqi taqrizchi:

M. Siddiqov,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Dissertatsiya bilan Fargʻona davlat universitetining axborot resurslari markazida tanishish mumkin.

Manzil: Fargʻona shahar Murabbiylar koʻchasi, 19-uy.

Kafedra mudiri:

G.Muhammadjonova

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
Farg‘ona davlat universiteti

Fakultet: Filologiya.
Kafedra: adabiyotshunoslik
O‘quv yili: 2015-2016

Magistratura magistranti: G.Karimova
Ilmiy rahbar: Z. Rahimov
Mutaxassisligi: Adabiyotshunoslik

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi. Har bir davrning o‘ziga xos hayotiy haqiqati va muammolarining badiiy adabiyotda aks etishi birinchi navbatda she’riyatdagi obrazlar, ularning ma’naviy olamini tadqiq etishni taqozo qiladi. Biz mana shu jarayonga yangi tamoyillar asosida yondashuv orqali ma’lum bir ilmiy konsepsiyani olg’a surishga intildik.

Ishning maqsadi va vazifalari. Hozirgi o‘zbek lirikasida yaratilayotgan kichik she’riy shakllarni bugungi kun o‘zbek adabiyotshunosligi metodologiyalari va nazariy asoslari asosida tadqiq etish, zamonaviy she’riyatni milliy badiiyatimizdan mustahkam o‘rin olgan estetik hodisa sifatida ochib berish, o‘zbek she’riyatida badiiy tasvir tamoyillarining teranlashishida davrning ijtimoiy, maishiy, madaniy shart-sharoitlari orasidagi bog‘liqlikni ochib ko‘rsatish va xulosalar chiqarish ishning maqsadini tashkil qiladi.

- Zamonaviy she’riyatida poetik fikrning yangilanishiga olib kelgan asosiy omillarni aniqlash;
- Hozirgi o‘zbek she’riyatidagi badiiy – estetik izlanishlarni tahlil etish;
- Yangilangan o‘zbek she’riyatida poetik obrazlar yaratish vositalarini ko‘rsatish;

Tadqiqot ob’yekti va predmeti. qilib Alisher Navoiy ijodida uchraydigan ilk kichik she’riy shakllar, zamonaviy o‘zbek adabiyotida Faxriyor, Tursun Ali, Azim Suyun, Abdu Nabi, Usmon Azim, Shermurod Subhon kabi shoirlar olindiva ular ijodiga murojaat qilindi.

Tadqiqot uslubiyati va uslublari. Tadqiqotda tavsifiy, qiuosiy-tipologik, nazariy-mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi. Kichik she’riy shakllarning hozirgi o‘zbek she’riyatida tutgan o‘rni monografik asosda tadqiq etildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqu. Tadqiqot xulosalari zamonaviy o‘zbek she’riyatining bugungi holatini tasavvur etish, poetik obraz yaratishdagi yangi shakliy izlanishlarning ta’siri va imkoniyatlarini anglash, shu jumladan hozirgi o‘zbek modern she’riyati bo‘yicha nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlarini olib borish, istiqloq davri shoirlari ijodining umuman o‘zbek she’riyati rivojida tutgan o‘rnini ko‘rsatib berish va ijodkor badiiy mahoratini ilmiy tasavvur qilishga yordam beradi.

Ishning tuzilishi va tarkibi. Dissertatsiya kirish, asosiy qismni o‘z ichiga olgan 3 bob, tadqiqot yuzasidan umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, hajmi 75 sahifani tashkil qiladi.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan Farg‘ona davlat universitetida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda uch marta ma’ruza qilingan. Ushbu ma’ruza materiallari universitetda nashr etilgan to‘plamda tezis shaklida 3 marta e’lon qilingan.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashirilgan ifodasi. Zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi kichik she’riy shakllarni nazariy jihatdan tahlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ilmiy rahbar:
Magistratura talabasi:

Z. Rahimov
G. Karimova

**THE MINISTRY OF HIGHER AND SPECIALIZED SECONDARY EDUCATION
FERGHANA STATE UNIVERSITY**

Faculty: **Philology**
The chair: **Literary criticism**
The academic year: **2015-2016**

Magistracy student: **G.Karimova**
Supervisor: **Z.Rahimov**
Specialty: **Literary criticism**

ANNOTATION FOR MA DISSERTATION

The topicality of the theme. Reality and authentic problems of every epoch and period and their reflection in literature requires the investigation of poetic images and their esthetic world. The years of independence give a peculiar novelty to Uzbek poetry. Therefore there is a necessity in investigation the style and versification of the poetics. On the bases of the new principles the definite scientific conception is distinguished in the study of the poetry of the independence period.

The aim of the research. The analyses of the minor poetic forms on the bases of the methodology and the theory of the contemporary Uzbek literary criticism; revealing the contemporary poetics as the esthetic means of the national literature; revealing the social, everyday life and cultural links in the artistic representation of Uzbek poetry are the aims of the given scientific work.

The objectives of the research.

- Defining the main factors, leading to renovation of the poetic views in contemporary poetics;
- Analyses of the artistic-esthetic investigations in the contemporary Uzbek poetry;
- Revealing the means of creating the poetic images in the renovated Uzbek poetry.

The subject and the object of the research. The minor poetic forms from the works by Alisher Navoi, the creation of the contemporary Uzbek poets Fahriyor, Tursun Ali, Azim Suyun, Abdu Nabi, Usman Azim and Shermurad Subhan.

The theoretical and practical significance of the dissertation. The results of the scientific work will promote representing the current state of the contemporary Uzbek poetry, deeply understanding the opportunities and significance in creating the poetic images, conducting the theoretical and practical courses of the contemporary Uzbek poetics, defining the place of poets of the independence period in the development of Uzbek poetry and scientific presentation of the artistic art of the poets.

The results of the research. The theses on the theme of the dissertation were published in the scientific-practical conferences of Fergana State University.

The structure of the dissertation. The dissertation work includes the introduction, the main part, consisting of three parts, general conclusion on the work done, the list of used literature. The volume of the work is 75 pages.

Scientific supervisor:
The student of magistracy:

Z.Rahimov
G.Karimova

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОГО СРЕДНЕГО
ОБРАЗОВАНИЯ**

ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

Факультет: Филологический
Кафедра: Литературоведение
Академический год: 2015-2016

Магистрант: Г.Каримова
Научный руководитель: З.Рахимов
Специальность: Литературоведение

АННОТАЦИЯ ДЛЯ МАГИСТРСКОЙ ДИССЕРТАЦИИ

Актуальность темы. Реальность и житейские проблемы каждой эпохи и периода, также отражение их в литературе в первую очередь требует исследований поэтических образов и их эстетического мира. Годы независимости придают своеобразную новизну узбекской поэзии, в связи с этим появляется необходимость в исследовании стиля и формы поэтики. На основе новых принципов выдвигаются определённые научные концепции в изучении поэзии периода независимости.

Цель научной работы. Анализ малых стихотворных форм на основе методологии и основы теории узбекского современного литературоведения, раскрытие современной поэзии как эстетического средства национальной литературы, выявление социальных, бытовых и культурных связей в художественном изображении узбекской поэзии являются целью данной научной работы.

Задачи научной работы.

- Определение главных факторов, ведущих к обновлению поэтических взглядов в современной поэзии;
- Анализ художественно-эстетических исследований в современной узбекской поэзии;
- Выявление средств создания поэтических образов в новоявленной узбекской поэзии.

Предмет и объект исследований. Предметом и объектом исследований являются малые стихотворные формы из творчества Алишера Навои, творчество современных узбекских поэтов Фахриёра, Турсуна Али, Азима Суюна, Абду Наби, Усмана Азима и Шермурода Субхана.

Практическая и теоретическая значимость магистерской диссертации. Результаты научной работы способствуют изображению нынешнего состояния современной узбекской поэзии, глубокому пониманию возможностей и значения исследований в создании поэтических образов, проведению теоретических и практических курсов современной узбекской поэтики, определению места поэтов периода независимости в развитии узбекской поэзии и научного представления художественного искусства поэтов.

Результаты исследования. По теме диссертации были опубликованы тезисы на научно-практических конференциях Ферганского государственного университета.

Структура магистерской диссертации. Диссертационная работа состоит из введения, основная часть включает 3 главы, заключение по проделанной работе и список использованной литературы. Общий объём работы составляет 75 страниц.

Научный руководитель:

З.Рахимов

Студент магистратуры:

Г.Каримова

Kirish	4-11
I BOB. KICHIK SHE'RIY SHAKLLAR GENEZISI VA ULARNING TADRIJIY TAKOMILI	11-28
1.1.Kichik she'riy shakllarning mumtoz adabiyotda tutgan o'rni	11-17
1.2. Badiiy tafakkurning yangilanishi.....	17-26
Birinchi bob yuzasidan xulosalar.....	27-28
 II BOB. BUGUNGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA SHAKLIY IZLANISHLAR ...	28-51
2.1.Fahriyor she'rlarida poetik majoz.....	28-37
2.2. “Beshnavo” va “Qayirmalar”da ramziy-falsafiy talqin.....	37-49
Ikkinchi bob yuzasidan xulosalar.....	49-51
 III BOB. ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZNING SHAKLLANISH JARAYONLARI	51-70
1-Fasl.Tursun Ali Ijodida uchliklar.....	51-58
2-Fasl.Shermurod Subhon ijodida badiiy tasvir vositalarining teranlashishi	60-68
Uchinchi bob yuzasidan xulosalar.....	69-70
 XULOSA	70-73
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	73-75

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.

Xalqning, millatning o'zligini tanish, shaxs erkinligi tuyg'usini ifodalashda she'riyatning roli va o'rni beqiyosdir. San'atning betakror salohiyati ham shundaki, u ayni davrdagi odamlar ongi-shuurini, hayot nafasi va jamiyat ehtiyojlarini tasvirlanayotgan mazmunga singdirib yuboradi. Natijada o'sha ifoda obyekti barcha xalqlar va elatlarning nazarini tortadigan, e'tiborini qozonadigan mohiyati bilan umumbashariy qadriyat maqomiga ega bo'ladi. Xususan, so'z san'ati o'sha tasvir obyekti o'zining poetik obraz tizimiga aylantirar ekan, voqelikni, odamlar taqdirini badiiy tadqiq etarkan, ularni go'zallik qonuniyatlari nuqtai nazaridan qayta jilolantiradi. Shunisi muhimki, she'riyat har doim tasvir obyektiga ezgulik, go'zallik, adolat va h.k. bashariy qadriyatlar asosida munosabat bildiradi. Aynan mana shu mohiyati bilan san'at asari umumbashariy mazmun kasb etadi. Badiiy asarning boqiy qadriyat maqomiga ega bo'lishi, e'zoz-ehtirom ko'rishining boisi ham ana shunda. Muhtaram Yurtboshimiz hozirgi o'zbek adabiyoti oldida turgan vazifalarni, xususan, bashariy qadriyatlar yaratishdek mas'ul burchini alohida ta'kidlayotgani bejiz emas: "Ijod- bu o'zni qiynash, mashaqqat chekish, huzur-halovatdan voz kechish, tom ma'noda fidoyilik demakdir. Chinakam ijodkor odamlarning dard-u g'ami bilan yashashi, xalq ichiga kirib borishi, o'zi uchun ilhomni, yangi mavzularni shu hayotdan, unda bo'layotgan o'zgarishlardan olishi kerakligini barchamiz yaxshi bilamiz."¹ Darhaqiqat, hozirgi o'zbek she'riyati badiiyatining istiqbolini yangi tarix yaratayotgan millatning o'tmishi, buguni va kelajagi tashkil etadi. Bugungi kun odamlarining istiqlool manfaatlaridan kelib chiqib, boqiy moddiy va ma'naviy boyliklar bunyod etishdek ezgu yumushlari asos vazifasini o'taydi. Binobarin, ma'naviy, milliy, umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lagan, qaramlikka qarshi asarlarga boy adabiyot, oxir oqibat iqtisodiy-ma'naviy kamolot uchun xizmat qiladi. Demak,

¹Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor.- Toshkent, «O'zbekiston», 2009, 6-7-betlar.

hurlik va vatanparvarlikni ruhiga joylagan, hayotni yuksak poetik shaklda badiiy tadqiq etgan she'riyat namunalarini haqqoniy tahlil etish, shu orqali yoshlarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mustaqillik mafkurasining va she'riyat qonunlarining ayrim qirralarini ochib beradi. Zero, chinakam she'riyat hayotning, inson ruhiyatining eng murakkab va chigal tomonlarini san'atkorona aks ettira oladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda bu ezgu an'anani davom ettiruvchi she'riyatimiz har jihatdan kamolga yetib, o'z taraqqiyotida yangi bosqichga ko'tarildi, ko'p qiyinchiliklarga, ziddiyatlarga, ojizliklarga qaramay, nazmimizning eng yaxshi namunalarida namoyon bo'layotgan yangi, hayotbaxsh tamoyillar uning ertasiga katta umid bilan qarashga imkon bermoqda. Ming yillar davomida Sharq adabiyoti an'analari ta'sirida rivojlanib kelgan o'zbek adabiyoti XX asrda mazmunan va shaklan qator yangilanishlar jarayonini boshdan kechirdi. Bu davr o'zbek ijodkorlari mumtoz adabiyot an'alarini davom ettirish bilan birga, jahon adabiyotining hayotbahsh tajribalarini ham o'z ijodlariga singdira boshladilar. Istiqlol arafasida va undan keyingi davr adabiyotida bu xususiyat yanada kuchayganligini she'riyatimiz namunalari misolida ham ko'rish mumkin. Har bir davr, har bir avlod, har bir san'atkor ideali xalq hayoti haqiqatlarini idrok etish hamda ertangi kunga nazar tashlash asosida yuzaga kelar ekan, u xoh avlodlarning bo'lsin, xoh yakka shaxslarning bo'lsin, ma'naviy izlanishlari asosida bunyod bo'larkan. Shoirlarning hayotni poetik obraz orqali tadqiq etish uslubi ham zamonga mos ravishda yangilanib, bu o'zgarishlar she'rning ruhida ham, shaklida ham namoyon bo'lmoqda. Shoirlar ijodi orqali biz hayotdagi murakkabliklarni, ziddiyatli xarakterga ega bo'lgan zamondoshimizning o'y-tuyg'ularini aks etamiz. Ming-ming yillar silsilasida har bir avlod hayotni, jamiyat va insonni yangicha badiiy idrok etish tamoyillari bilan ajralib turadi. Badiiy so'zning yangi-yangi ifoda imkoniyatlarini kashf etishadi.

Hozirgi mustaqillik jarayoni va unda ro'y berayotgan voqealar oqimi o'zbek she'riyatiga yangicha mazmun bermoqda va shunga yarasha yangi uslubiy, shakliy izlanishlarni zaruratga aylantirmoqda. Badiiy adabiyotning bu zaruratni amalga oshirishdagi asosiy vazifasi kitobxonlarda yangicha badiiy tafakkurni

shakllantirishdan iboratdir. Jahon adabiyotida ham g'oyaviy, ham badiiy jihatdan yetakchi o'rin egallab kelayotgan she'riyat haqida rang-barang fikrlar, turli-tuman konsepsiyalar bildirib kelinmoqda. O'tgan asr oxirlarida o'zbek she'riyati poetikasida namoyon bo'layotgan evrilishlar hamda klassik she'riyat tamoyillari o'rtasidagi nisbatlar, ularning istiqbolidagi rivojlanish tendensiyalari aniq materiallar tahlili orqali ochib beriladi. Hozirgi o'zbek she'riyati tub sifat o'zgarishlarni boshidan kechirdi. U mafkuraviy yugurdaklik xizmatidan qutuldi. Shu tarzda badiiy adabiyot davlat adabiyoti bo'lmay qoldi. Eng muhimi, shoirlarimiz olam, odam haqida avvalgidan yangicha fikrlash mumkinligini angladilar va o'zlari ham shunga ko'nika boshladilar. Poeziyada lirik qahramonni tasvirlash tamoyillarida ham jiddiy yangilanishlar ro'y berdi. Shuning uchun ham o'tgan asrning o'n yilligi o'zbek adabiyotida istiqlol she'riyati deb atalmish estetik hodisa to'liq shakllanishiga imkon berganligi bilan xarakterlanadi. U yo'q joydan tasodifan paydo bo'lib qolgan emasdi. Bu she'riyat ko'p asrlik milliy badiiyatimizning mantiqiy davomi va merosxo'ri edi.

O'zgacha shakllanish va taraqqiyot tamoyillariga ega zamonaviy she'riyatning qator o'ziga xosliklari mavjuddirki, ayni shu xususiyatlar unga milliy nazmimiz taraqqiyotidagi alohida bosqich sifatida qarash imkonini beradi. Bu badiiy hodisaga hozirgi o'zbek she'riyati degan nom ozodlikni orzulagani, millat ahlini ozodlikka undagani, mustaqillikni madh qilgani, egaman kishilarning tuyg'ularini aks ettirgani uchungina emas, balki birinchi navbatda, she'rxonga dunyoni o'rganish bilan birga o'zini, o'z ko'nglini taftish etish lozimligini anglatishga uringani uchun ham berilgan atama ekanligini ta'kidlash joiz. Ya'ni mustaqillik kishining tabiatiga ko'chsa, uning ma'naviy sifatiga aylansagina, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy hodisa sifatida ham qiymat kasb betadi. Istiqlol butun o'zbek millatini dunyoga, dunyoni esa o'zbekka yaqinlashtirdi, uning adoqsiz kengligini, purviqor cho'qqilarini, poyonsiz va serqirra ekanligini aks ettirdi. Uning har bir qirrasi olam hodisalari qadar murakkab va jilvagar ekanligini anglatadi. Odamni bilish olamni bilishdan mushkulroq ekanligini ifodaladi. Binobarin, shu xil xossalarga ega odamning g'oyat

mukarram zotligi tuydirildi. Shuning uchun ham bu she'riyat oldingilaridan farq qilguvchi bir qator xususiyatlarga ega bo'ldi. O'zbek she'riyatining Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim, Ikrom Otamurod, Tursun Ali, A'zam O'ktam, Muhammad Yusuf, Abduvali Qutbiddin, Eshqobil Shukur, Iqbol Mirzo, Bahrom Ro'zimuhammad, Faxriyor, Zebo Mirzo, Farida Afro'z, Shermurod Subhon, Shamshod Abdulla, Go'zal Begim singarivakillarining asarlarida olamni poetik idrok etish yangi bosqichga ko'tarilayotgani namoyon bo'ladi. Istiqlol she'riyatida hissiyot qatlamlarini tadqiq etish, odam ruhiyatidagi boy, olis va rangin iqlimlarni poetik kashf etishga intilish kuchaydi. Unda ko'ngilni tozalashga alohida e'tibor qaratildi.

Rauf Parfining "Adashgan ruh", "Qora devor", "Munojot", "Sensiz", Azim Suyunning "Istig'for", "Bitiklar", Abduvali Qutbiddinning "Izohsiz lug'at", Iqbol Mirzoning "Seni deb" singari she'riy asarlari hozirgi o'zbek nazmining yetuk namunalaridir. Bu she'riyat shakliy izlanishlar miqyosi kengayganligi bilan xarakterlanadi. Unda chiqish va botish adabiyotidagi samarali tajribalarni o'rganish va boyitishga intilish g'oyat kuchaydi. Ifodada to'liq erkinlikka intilish istagi o'zbek istiqlol she'riyatida yangi shakllarga ehtiyoj uyg'otganligi uchun shakliy imkoniyatlarni kengaytirish yo'lidan borilmoqda. Aslida bu ilmiy ish janr tarzi, tadriji va taraqqiyoti tamoyillari bo'yicha olib borilgan yirik fundamental tadqiqotning muayyan qismlaridan iborat. Zotan, har bir tadqiqotning, u maqola bo'ladimi, monografiya bo'ladimi, bosh maqsadi muayyan ilmiy konseptsyani olg'a surishdan iborat. Har bir davrning o'ziga xos hayotiy haqiqati va muammolarining badiiy adabiyotda aks etishi birinchi navbatda she'riyatdagi obrazlar, ularning ma'naviy olamini tadqiq etishni taqozo qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida falsafiy qaydlar, aforizmlar, xalq maqollariga o'xshab ketadigan, lekin o'zining tub mohiyati bilan ulardan farq qiluvchi badiiy asarlar ko'plab yaratildi². Ayniqsa, ba'zan "misra", "ignabarg", "fiqra", "bir qatorli

² Қаҳҳор Йўлчиев. Поэтик олам сирлари.- Тошкент., Академнашр, 2012

she'r", "uchchanoq", "tasbeh", "to'rtlik", "qayirma", "beshnavo", "shashqator" ba'zan esa nomsiz atalib kelinayotgan kichik she'riy shakllar o'zbek she'riyatida o'ziga xos badiiy hodisadir. Bunday asarlar yaratgan mumtoz ijodkorlardan Zahridin Muhammad Bobur, Atoulloh Husayniy, Xo'ja Ahror Vali, zamonaviy shoirlardan Anvar Obidjon, Xurshid Davron, Tursun Ali, Farida Afro'z, Faxriyor, Shermurod Subhon kabi shoirlarni ko'rsatish mumkin. Kichik she'riy shakllar bo'yicha filologiya fanlari doktori Abdug'afur Rasulov, pedagogika fanlari doktori Qozoqboy Yo'ldoshev, filologiya fanlari doktori Yo'ldosh Solijonov, tadqiqotchilar Qahhor Yo'lchiyev, Alimardon Hayitov, M. Yo'ldoshevalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

She'riyatimizda o'ziga xos hodisa sifatida tan olinayotgan bir qatorli she'r haqida pedagogika fanlari doktori, professor Q.Yo'ldoshevning maqolasi e'tiborga loyiqdir³. Unda olim shoira Farida Afro'z ijodiga fikr bildirgan. Ularni o'zbek she'riyatida fiqra deyilishi va kelib chiqishi haqida fikr bildirib bir nechtasini tadqiq qilgan.

Anvar Obidjonning bir misrali she'rlari haqida esa taniqli olim A.Rasulov "Ijodiy o'zlik sari yo'l" maqolasida o'z fikrini aytib o'tgan⁴.

Bu o'rinda A.Hayitovning "90-yillar o'zbek lirikasida an'ana va shakliy izlanishlar" nomli nomzodlik dissertatsiyasida kichik she'riy shakllar haqida fikr yuritganini aytib o'tish lozim. Unda tadqiqotchi Faxriyor she'rlari haqida so'z yuritgan⁵.

Tadqiqotchi Q.Yo'lchiyev "Poetik olam sirlari" nomli monografiyasida asosan Anvar Obidjon ignabarg va uchchanoq she'rlarining nazariy asoslari, genezisi, tasnifi va badiiyati haqida kengroq ma'lumot bergan⁶.

Dissertatsiyaning maqsad va vazifalari.

³Йўлдошев Қ.Улкан туйғуларнинг мўъжаз суратлари. Китобда.Фарида Афрўз. Тасбех. Тошкент, "Шарк, 2007. – Б.3-10.

⁴Расулов А. Бетакроп ўзлик. -Тошкент."Mumtoz so'z". 2009. 187-208 -бетлар.

⁵Хайитов А. 90-йиллар ўзбек шеъриятида анъана ва услубий изланишлар. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тадим этилган диссертацияавтореферати. Тошкент. 2004.

⁶Қаҳҳор Йўлчиев. Поэтик олам сирлари. Тошкент. Академнашр. 2012 йил

Milliy istiqlol tufayli badiiy ijod siyosati qaramlikdan ajratilgani singari ilmiy ishlarda ham milliy istiqlol mafkurasiga tayangan holda, haqqoniy tahlil usullarini qo'llashga keng yo'l ochib berildi. Biz, ushbu tadqiqotimizda bilvosita shu imkoniyatdan to'laqonli foydalanishga harakat qildik. Asrimiz o'zbek adabiyotiga bir nazar tashlab, hozirgi o'zbek shoirlarining poetik obraz yaratishda erishgan yutuqlarini Faxriyor, Azim Suyun, Abdu Nabi, Tursun Ali va Shermurod Subhon poeziyasi misolida baholi qudrat ochib berishga intildik. Mazkur shoirlarning ijodi bo'yicha o'zbek adabiyotshunosligida, turli haftalik, jurnallar va gazetalarda mazkur davr she'rlariga oid kuzatishlari maqola sifatida e'lon qilingan. Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Yo'ldosh Solijonov, Qozoqboy Yo'ldoshev, No'mon Rahimjonov, Ulug'bek Hamdam, Qahhor Yo'lchiyev, Muhayyo Yo'ldosheva kabi olimlarning kitoblarida ham zamonaviy she'riyatdagi izlanishlar, o'ziga xos xususiyatlari va yangilik tomonlari haqida fikr yuritilgan.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalarni yoritish va amalga oshirish nazarda tutiladi:

- Hozirgi o'zbek she'riyatini milliy badiiyatimizdan mustahkam o'rin olgan estetik hodisa sifatida ochib berish;
- Hozirgi o'zbek she'riyatida poetik fikrning yangilanishiga olib kelgan asosiy omillarni aniqlash;
- o'zbek she'riyatida badiiy tasvir tamoyillarining teranlashishida davrning ijtimoiy, maishiy, madaniy shart-sharoitlari orasidagi bog'liqlikni ochib ko'rsatish;
- Istiqlol davri she'riyatidagi badiiy – estetik izlanishlarni tahlil etish;
- Yangilangan o'zbek she'riyatida poetik obrazlar yaratish vositalarini ko'rsatish;

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati.

Tadqiqot xulosalari zamonaviy o'zbek she'riyatining bugungi holatini tasavvur etish, poetik obraz yaratishdagi yangi shakliy izlanishlarning ta'siri va imkoniyatlarini anglash, shu jumladan hozirgi o'zbek modern she'riyati bo'yicha nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarini olibborish, istiqlol davri shoirlari ijodining umuman o'zbek she'riyati rivojida tutgan o'rnini ko'rsatib berish va ijodkor badiiy

mahoratini ilmiy tasavvur qilishga yordam beradi. Tadqiqot natijalaridan o'zbek adabiy tanqidchiligida, zamonaviy o'zbek she'riyatiga tegishli maxsus seminarlar o'tkazishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning metodologik asoslari.

Magistrlik dissertatsiyaning metodologik asosini, asosan g'oyaviy nuqtai nazardan Prezidentimiz Islom Karimovning ma'naviy mafkuraviy fikrlariga, ilmiy nazariy jihatdan o'zbekadabiyotshunos olimlaridan Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Yo'ldosh Solijonov, Ibrohim G'ofurov, No'monjon Rahimjonov, Qozoqboy Yo'ldoshev, Ulug'bek Hamdamlarning ilmiy qarashlariga murojaat qilindi.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi

Magistrlik dissertatsiyada o'zbek she'riyatida fikrning yangilanishi, poetik obraz yaratish, she'riyatda inson obrazining aks etishi, obrazning ijtimoiy, falsafiy ma'no qirralari tadqiq etiladi. Istiqlol yillarida o'zbek modern she'riyatining o'zbek badiiy tafakkur taraqqiyotidagi o'rni asoslab berilgan va ilmiy tahlilga tortilgan.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti sifatida

Kichik she'riy shakllarning mumtoz adabiyotda Alisher Navoiy ijodida tutgan o'rni va hozirgi o'zbek lirikasi bo'yicha Fahriyor, Tursun Ali, Shermurod Subhon, Azim Suyun, Usmon Azim, Abdunabi Boyqo'ziyev ijodlariga murojaat qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.

Farg'ona davlat universiteti professor-o'qituvchilarining yillik-nazariy va amaliy konferensiyalari (2015-2016), Farg'ona davlat universiteti Adabiyotshunoslik kafedrası tomonidan o'tkazilgan respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari asosida chop etilgan "Badiiyat ummoni" to'plamida, Farg'ona davlat universitetining "Filologiyaning dolzarb muammolari" ilmiy-nazariy internet konferensiyasida ma'ruza qilinib, ilmiy aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Kirish, uch bob, olti fasl, xulosa, adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 75 betni tashkil etadi.

I BOB

KICHIK SHE'RIY SHAKLLAR GENEZISI VA ULARNING TADRIJIY TAKOMILI

1.1. Kichik she'riy shakllarning mumtoz adabiyotda, xususan, Alisher Navoiy ijodida tutgan o'rni

Sharq adabiyoti tarixida, xususan, Alisher Navoiy ijodida faqat bitta kichik lirik janrda yaratilgan she'rlardan iborat asarlar mavjud. Ulug' shoirning "Nazm ul-javohir" hamda "Arbain" nomli asarlari shular jumlasidandir. "Nazm ul-javohir" asari to'rt xalifalarning so'nggisi bo'lgan hazrat Alining hikmatlari asosida yaratilgan. "Arbain" deb nomlanuvchi, ya'ni qirq hadis mazmunini o'zida aks ettirgan qit'alardan iborat shoirning risolasida esa Rasullulohning mashhur hadislarini she'riy bayon etilgan.

Ular o'rtasidagi birinchi farq har ikki she'riy to'plamlarning janr xususiyatlari bilan bog'liq. Chunki, "Arbain" lirikaning qit'a janri asosida yaratilgan bo'lsa, "Nazm ul-javohir" she'rlari ruboiy janriga mansubdir. Biz bu hol sababini anglashimiz uchun janrlarning xususiyatlariga diqqatni qaratamiz.

Bir shoir tomonidan bir xildagi mavzuning bir necha lirik janrlarda qalamga olinishini chog'ishtirish janrlar imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlarini oydinlashtirishda qo'l keladi. Shu yo'l bilan ham har bir lirik janr tabiati, ifoda imkoniyati va xarakterini asoslash mumkin. Ayniqsa, daho so'z san'atkori Alisher Navoiyning keng ko'lamli va boy ijodiy merosidan bu masalani yoritish uchun istagancha misol keltirsa bo'ladi. Qizig'i shundaki, bitta mavzu va g'oyaning ifoda yo'sini turli janrlarda turli ko'rinishlarga- ba'zan lirik-falsafiy, ba'zan axloqiy-didaktik, gohida esa lirik xulosa tarziga ega bo'ladi. Biz, avvalo, tanlagan misollarimizga asos bo'lgan hadisni keltiramiz:

Yo, Ali! Maxlas (gunohlardan halos bo'luvchi)da uch fazilat bor: boylikka dushmanlik va Haqni ulug'lash; o'z nafsiga dushmanlik; Xudo buyurganidan bo'lakni yod etgan so'zlarga dushman bo'lmoq.

Hadisdagi hirs va ta'maga, dunyoparastlikka qarshi kurashishga da'vat Alisher Navoiyning axloqiy-ma'naviy g'oyalariga mos keladi. Bu mavzu va g'oya shoirning nafaqat lirik, balki epik va boshqa turdagi asarlarida ham asosiy masalalardan biridir. Endi ana o'sha mavzu va g'oyaning turli janrlardagi ifodasi talqiniga o'tamiz. Shoir g'azallaridan birida shunday yozadi:

*Tori ummid aro harisni bil -
Rishtai ankabut ichinda magis.
"G'aroyib -us sig'ar" devoni. 235-g'azal⁷.*

Haris - ya'ni hirsga berilgan bandalar, nafs quli bo'lgan kimsalar obrazli tarzda o'rgimchak to'rlariga o'ralib qolgan hasharotga tashbeh etilmoqda. Farq shundaki, hasharot yoki pashsha ongsizligi tufayli beixtiyor tuzoqqa tushadi. Mol-dunyo hirsidagi kishilar esa o'z ta'magirliklari orqasida ixtiyoriy ravishda hoyu-havas girdobida qoladilar. Ko'rinadiki, g'azal janri tabiati ko'proq obrazlilikni, majozni, turli-tuman badiiy vositalarni o'rinli qo'llashni taqozo etadi. Axloqiy-pandnoma xarakteridagi masalalarni g'azalda tog'ridan-to'g'ri ifodalab bo'lmaydi. Aks holda, bunday asarga she'rxonga estetik zavq bermaydi, uni zeriktiradi. Lirik g'oyaning ta'sirchanligini oshirish uchun g'azalda qo'yilayotgan masalani o'quvchi shuuriga obrazli yetkazish talab etiladi. Demakki, g'azal mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash she'rxondan muayyan tayyorgarlikni talab qiladi. O'z-o'zidan, g'azal janridagi she'rlarni mutolaa qiluvchi she'rxonlar safi torayadi.

Endi xuddi shu mavzuning qit'a janrida aks etishini kuzatamiz. "G'aroyib us-sig'ar" devonidan o'rin olgan 22-qit'a quyidagicha nomlanadi:

"Takalluf ahlining dunyog'a sheftalg'ida va dunyolikka fireftalig'ida":

*Tanni zarbaft aylabon xiffatdin uchqon har taraf
Yo'q ajab gar bor esa dunyo matoi kom anga.*

⁷Алишер Навоий. Асарлар. ХҲ жилдлик. 15-жилд. Т. : 1968

Ul chubinkim, ko'zga oltun yanglig' ishnor xil'ati

Ko'praki bilkim, najosat uzradir orom anga.

Ushbu qit'ada ham g'azaldagi mavzu saqlab qolingani. Navoiyning ijodiy ixtirolaridan bo'lmish qit'aga qo'yilgan sarlavha she'rxon diqqatini qo'yilayotgan masalaga yo'naltiradi. "Dunyo matoyi komi"ga aylangan kishilar usti yaltiroq, ammo turli iflosliklardan hazar qilmovchi chivin-pashshalarga o'xshatilmoqda. Demak, qit'ada ko'p ma'nolilik bo'lmasligiga harakat qilinadi. Fikr ifodasi lo'ndalashadi.

Shoir ruboiylaridan birida ham bu masala quyidagicha qo'yiladi:

Hirs havosini nafs havosi bilgil,

Qo'ymoq ani nafs muddaosi bilgil.

Nafsingga alam hirs balosi bilgil,

Kechmoq mundin aning davosi bilgil.

Ruboiyda lirik qahramon ko'proq donishmand, hayotning achchiq-chuchugini totgan mutafakkir sifatida namoyon bo'lmoqda. Pandnoma ruhi kuchayib, olg'a surilayotgan g'oya ikkinchi shaxsga murojaat tarzida yetkazilmoqda. Ruboiyning ixcham shakli fikr va tuyg'ularning lo'nda hamda tushunarli ifodalanishini taqozo qilmoqda.

Mavzuga aloqador yana bir misol: tilni noo'rin gap-so'zlardan tiya bilish, til orqasidan birovga ozor bermaslik haqidagi o'gitlar, til tufayli boshga keluvchi kulfatlar haqidagi falsafiy-axloqiy qarashlar Sharq didaktik adabiyotida keng ishlangan mavzulardan biridir. Bunga aloqador hadislardan birida shunday mazmun ifodalangan:

Hazrat Ali dedi: - Yo Rasululloh! Mo'minlik va eminlik nimada ekanini bilishni istayman. Payg'ambar buyurdilar: - Mo'minlarga na qo'ling va na tiling bilan ozor bermagin!

Ulug' shoir va mutafakkir lirik merosining har bir janrida bu mavzuga turli yo'sinda va qayta-qayta murojaat qilingan. Shoirning g'azallaridan birida shunday baytlar bor:

Pok lafz ayturg'a og'zing pok qilg'ilkim, hayfdur,

*Yaxshi so'z borida so'rg'ay nukta mazmum og'iz...
Ey Navoiy maxlas istar bo'lsang el, til, og'zidin,
Nazmdin ham tilni tiyg'il, nasrdin ham yum og'iz.*

"G'aroyib-us sig'ar" devoni. 220-g'azal.

Mazkur g'azalda pok lafz aytish e'tiqod darajasiga ko'tarilib, lirik qahramon turli ko'rgiliklardan xalos bo'lmoq uchun og'zini yummog'i - kerak paytda sukut saqlash ham fazilat ekanligi bayon etilmoqda. Axloqiy- ta'limiy g'oya lirik kechinma va tuyg'ular bilan hamohanglikda badiiy bo'yoqlarda ifodalanayotir. Endi shu mavzudagi qit'aga diqqatni qaratamiz:

"Oz so'z demakning manfaatida va ko'p so'zning mazarratida":

*Navoiy, tiling asragil zinhor,
Desangkim, yemay dahr ishidin fusus.*

*Nazar qilki, o'q og'zi tilsiz uchun
Qilur tojvarlar bila dastbo's.*

*Necha tojvardur kesarlar boshin
Chu hangomsiz nag'ma tortar xurus.*

"G'aroyib-us sig'ar" devoni. 21-qit'a.

Mazkur qit'ada didaktik xulosa avval aytilmoqda. Keyin kamon o'qi timsoli majoziy ma'noda keltirilib, bu o'q tili yo'q bo'lganligi uchun shohlar qo'lini "o'pish"ga musharraf bo'lishi aytilmoqda. Birinchi obrazli misolda tilsizlikning foydali jihatlari ko'rsatilib, unga parallel ravishda bo'lar-bo'lmasga "Nag'ma" tortishi - qichqiraverishi natijasida boshi kesiladigan xo'roz fojeasi obrazli bayon etilmoqda. Qit'aga xalqning mashhur "Til yugurigi - boshga" maqoli mahorat bilan singdirib yuborilgan.

"Arbain hadis" asarida ham shu mavzuga aloqador qit'a bor. Ammo bu qit'a xarakteriga ko'ra diniy ruhda bo'lib, yuqoridagi hadis mazmunini aynan aks ettiradi:

*Kim musulmonlig' aylasa da'vo,
Chin emas gar fido qilur jonlar.*

Ul musulmon dururki, solimdur

Tiliyu ilkidin musulmonlar

Qit'a muallifining fikricha, turli diniy qoida va farazlarni bajarish bilan birga, insoniylikning oliy burchlari - qo'l va tilning pokligi, boshqalarga zarar yetkazmasligini odat qilish har bir musulmon uchun shartdir. Chunki inson insonga ko'proq tili va qo'li bilan yaxshilik yoki yomonlik yetkazadi. "Musulmon - musulmonga og'a-ini, unga xiyonat qilmaydi, uni aldamaydi" hadisi islom tarbiyasida do'stlik va birodarlik mezonlarini belgilashda muhim o'rin tutadi. Alisher Navoiy hadis mazmuni orqali insonning insonga nisbatan salomatligi, osoyishtaligi hamda zarar-ziyon ko'rishi til va qo'ldan ekanligini yaqqol ifoda etadi. Mazkur hadis shoir va mutafakkir ijodida turli ko'rinishlarda, turli janrlarda qayta-qayta tilga olinadi. Jumladan, "Mahbub-ul qulub" asarida ham tili pok, ko'ngli pok inson musulmondur. Xulosa qilib aytganda, mumtoz adabiyotga mansub kichik lirik janrlar tanlangan mavzu hamda falsafiy g'oyaga ko'ra bir-birlariga yaqin tursalar-da, vazn, ifoda tarzi, obrazlilik jihatlaridan biri biridan farqlanadi. Ammo kichik lirik janrlar ixcham shakli, estetik ta'sir kuchi, tez xotirada qolishi jihatidan mualliflarga juda qo'l keladi. Alisher Navoiy o'z ijodiy faoliyatida kichik lirik janrlarga, xususan, ruboiy janriga alohida e'tibor bilan munosabatda bo'lgan. Ulug' shoir bu janrning ixchamligi, lo'ndaligi, xush ohang ekanligi, fikrni harorat va yorqinlik bilan ifoda eta olish imkoniga yuqori baho beradi: "Ruboiy vaznikim ani dubaytiy va tarona ham derlar, hazaj bahrining axram va axrabidin istixroj qilubdurlar va ul vaznedur asri xush oyanda va nazmedur bag'oyat raboyanda. She'r avzonidin ushbu vazndurkim, nazm ustodlari anga hadde (hajm) muayyan qilubdurlar va g'oyat latofatidin ikki baytga ixtisor qilibturlar va ul yigirma to'rt nav kelibtur va majmui ikki qismga muxtasardir..."⁸ Alisher Navoiyning ushbu kichik lirik janrdagi mahoratini ko'rsatish, o'ziga xos jihatlarini yoritish uchun ruboiy janri tarixi va takomil jarayoniga qisqacha nazar solish foydadan holi emas.

⁸ Алишер Навоий. Мезон-ул авзон. Асарлар. 14-жилд. Т:1967. Б.157

Tafakkur va tuyg'uni o'zida uyg'unlashtirgan lirik janr – ruboiy asrlar davomida Sharq she'riyatining yetakchi janri bo'lib keldi. Olam va Odam muammosini falsafiy jihatdan lo'nda va ta'sirli aks ettirishi tufayli ruboiy she'riyatning falsafiy janri sifatida mashhur. Shuning uchun ham akademik G'afur G'ulom bu haqda shunday degan edi: ruboiy “...olam-olam mazmunlarning javharini yig'ib, to'rt satrga sig'dira olish mahoratidir. Qatrada okean, uchqunda –quyosh mazmunini berish ruboiyga xos xususiyatdir.”⁹

Sharq adabiyotida dovuq taratgan qalam sohibi borki, o'z ijodida ruboiyni chetlab o'tmagan. Mashhur mutasavvif shoir Fariddidin Attor 5000 ta ruboiy yozganligi ma'lum. Mirzo Abdulqodir Bedil 3861 ta bo'lsa, zabardast tasavvuf shayxi, Navoiy o'zining ma'naviy piri deb e'tirof etgan Abdulloh Ansoriyga 2000 dan ziyod ruboiyni nisbat beradilar.

Ma'lumki, mumtoz adabiyot janrlari asrlar davomida shakllangan va o'z takomiliga erishgan. Ruboiy arabcha to'rtlik ma'nosini bildirsa-da, uning paydo bo'lishi va lirik janr sifatida shakllanishini fors-tojik adabiyoti bilan bog'laydilar. Bu janrning kashfiyotchisi sifatida Abu Abdullo Rudakiy tan olinadi. “Har qanday to'rtlik ruboiy bo'lavermaydi. Biror to'rtlikni ruboiy deb atash uchun unda tugal mazmun, ruboiy shakli bo'lishidan tashqari, ruboiy vazni ham bo'lishi kerak. To'rtlik qanchalik chuqur ma'no va go'zal shaklga ega bo'lmasin, agar u ruboiyning maxsus vazniga tushmasa, ruboiy bo'la olmaydi¹⁰.

Albatta, ruboiyning shakl nuqtai nazaridan qat'iy talablari, nozik jihatlari bo'lishi bilan birga, o'z imkoniyatlari, qulayliklari ham bor: bir necha vazn bir ruboiy doirasida o'rin almashib kelishi ham mumkin, hatto, ham axram, ham axrab tarmog'ida yozilgan ruboiylar mavjud. Bu mazmunga ta'sir qilmaydigina emas, bir musiqiy ohang, mushtarak she'riy ruh atrofida aylangani uchun ritmni ham aytarli o'zgartirmaydi. Barmoq vazni to'g'risida esa bunday deb bo'lmaydi: chunki har bir hijoning kamayishi va ko'payishi bilan ham vazn o'zgaradi.

⁹ G'afur G'ulom. Asarlar. O'n jildlik. 8-jild. Toshkent.: 1976. B. 412

¹⁰ Haqqulov I. O'zbek adabiyotida ruboiy. Toshkent. 1981. B.97

Bu mo'jaz janr o'zining xalqchilligi va imkoniyatlarining kengligi bilan nafaqat shoirlar, balki, mutafakkirlarni ham o'ziga jalb etgan. Lekin ularning ruboiylarida tuyg'uga nisbatan tafakkur ustunlik qiladi. Jumladan, ba'zi manbalarda Sharqda "muallimi soniy" nomi bilan shuhrat qozongan qomusiy olim Abu Nasr Forobiyning ham ruboiy janrida muntazam qalam tebratganligi xususida ma'lumot beriladi.

Rudakiy davriga kelib ruboiy yanada xalqchil va sodda tus olgan. Bu janrda yozilgan she'rlarning aksariyati oshiqona ruhda bo'lsa-da, ba'zan orifona qarashlar ham ko'zga tashlanadi. Eng, muhimi, ayni shu davrdan boshlab, pand-nasihat ruhidagi ruboiylar ham yaratila boshlangan.

Tadqiqotchilarning fikricha, Abu Ali ibn Sino birinchi bo'lib ruboiyga o'zining teran falsafiy qarashlarini singdirgan. Keyinroq esa Umar Xayyom azal va abad, olam va odam muammolari xususida teran falsafiy ruboiylar yaratib, o'z nomini va mana shu janr dovrug'ini olamga taratdi. O'zbek adabiyotida ruboiylarning falsafiy chuqurligi, uslubining go'zal va ifoda tarzining yorqinligi bilan Pahlavon Mahmud va Mirzo Bobur Umar Xayyomga yaqin turadilar. Ruboiy janri keyinroq hajv hamda yumorni ham ta'sirliifoda eta olishni ko'rsatdi. So'zaniy Samarqandiy, Ubayd Zakoniylarning hajviy ruboiylari buning yaqqol dalilidir.

"Boburnoma"da shoir Sayfiy Buxoriy ruboiylari muayyan kasblarga bag'ishlab yozilganligi aytiladi. Mumtoz adabiyotshunoslikda bunday ruboiylar "shahrosho'b" deb ham yuritiladi va Shahriyoriy, Usmon Utbiy, Umar Farqadiy singari shoirlar shu tipdagi ruboiylarning ustalari hisoblanadilar. Ruboiyda madhiyalar, marsiyalar, ta'rixlar, na't va munojotlar ham ifodalanganligini bizgacha yetib kelgan ko'plab namunalarda kuzatishimiz mumkin.

XI asrdan e'tiboran ruboiy zabardast so'z ustalari tomonidan ham e'tirof etilib, rasmiy devonlardan mustaqil janr sifatida o'rin ola boshladi. Shu tariqa ruboiy X-XII asrlarda batamom shakllandi.

Ruboiy janrida yaratilgan she'rlar "xosa" hamda "tarona" singari xillarga bo'linadi. Ruboiy tarona yaratish birmuncha murakkabroq bo'lib shoirdan alohida

mahorat talab etadi. Alisher Navoiyning “Nazm- ul javohir” asaridagi 260 ta ruboiyning hammasi, “G’aroyib –us sig’ar” devonidagi 133 ruboiyning 116 tasi ruboiy tarona ekanligi ulug’ shoirning tengsiz mahorati va teran bilimlaridan dalolat beradi.

Mazkur kichik lirik janrning paydo bo’lishi va taraqqiyotiga o’zbek xalq og’zaki ijodining ham ta’siri bo’lganligi haqida qarashlar mavjud. Bundan xulosa qilish mumkinki, Alisher Navoiy ruboiyning xalqimiz ruhiga yaqin ohanglari, lo’nda va ixchamligi uchun ham eng muhim axloqiy-pandnoma ruhidagi qarashlarini ko’proq mana shu janrda ifodalagan.

1.2. BADIY TAFAKKURNING YANGILANISHI

She’riyatning hayotni qaysi xil timsollar asosida, qay yo’sinda badiiy tadqiq etishi lirik qahramon siymosining qay suvratda namoyon bo’lishi, shoir iste’dodi, e’tiqodi va ma’naviyati bilan birgalikda ijtimoiy adabiy muhitga ham bog’liq. Anglashilinishicha, davr yo’nalishi shoir e’tiqodi va iste’dodiga zid bo’lmasa ijodkor o’z «men»ini asarlariga ko’proq, samaraliroq singdiradi. Aksincha bo’lsa davrdagi yo’nalishlar shoir ruhi va ilhomi ustidan hukmronlik qilsa, yozgan har bir satri «elak»dan o’tkazilsa, ijodkor «men»i rangsiz va qashshoq holga tushishi mumkin. Ammo iste’dod shuning uchun hamiste’dodki, u o’zining tengsiz matonati, qarama-qarshiliklarni yenga olish qudrati bilan muhit dovullarini yengib, ulug’ va betakror asarlar, isyonkor va jur’atli qahramonlar obrazini yarata oladi. Istiqloldan beri juda ko’p she’rlar yozildi va e’lon qilindi. Bu she’rlarning badiiy saviyasi birdek emas, albatta. Biroq har bir yaxshi she’r haqida uzoq gapirish mumkin. Buning imkonsizligi tufayli biz she’riyatimizdako’zga yaqqol tashlanadigan uch jihatni alohida ta’kidlab ko’rsatmoqchimiz:

1. Ijtimoiy mavzudagi she’rlar;

2. Falsafiy ruhdagi she'rlar;

3. Tuyg'ularo'zgacha ifodalanayotgan izlanish yo'lidagi she'rlar.

Hozirgi o'zbek she'riyati mustaqillik davrida tiklanish, yangilanish, bor haqiqatni cho'chimasdan baralla aytish, aks ettirish yo'lidan borib o'z mavzu doirasini zamonaviy dolzarb mavzular hisobiga kengaytira bormoqda. Shuningdek, o'z g'oyaviy mundarijasini yangi-yangi poetik mazmun va hikmatli fikrlar bilan boyitishga ham muvaffaq bo'ldi. Natijada hayotiylik va zamonaviylik ustun xususiyat sifatida tobora barqaror bo'ldi. To'g'ri, bu davrda o'tmish mavzulari ham e'tibordan chetda qolmadi. Shoirларimiz endi mavzuni istiqloл mafkurasi talablari asosida yoritishga, xalqimizning uzoq va yaqin o'tmish hayotini yangicha talqin va tasvir etishga harakat qildilar. Natijada bu sohada ham bir qancha yangiliklar yuzaga keldi. Mustaqillik tufayli adabiyotda chin hayotga tobora chuqurroq kirib borish, hayot haqiqatini butun borlig'i va murakkabligi bilan aks ettirish, voqeligimizni bo'yab-bezamasdan, asossiz maqtamasdan, bor haqiqatni ro'y-rost yozish, yuksak sifatli badiiy asarlar yaratishga qiziqish va imkoniyat kuchaydi. Shuni quvonch bilan qayd etish lozimki, O'zbekiston yozuvchilari jamoasi orasida mamlakat mustaqilligining asl mohiyatini tushunmagan va uni qo'llab-quvvatlamagan birorta ham haqiqiy ijodkor yo'q. Asarlarimizning g'oyaviy mazmunidagina emas, shaklida ham sifat o'zgarishlari namoyon bo'la boshladi. So'z san'ati yangi mavzu, yangi g'oya va yangi obrazlar bilan boyidi. Bu yangi davrda, ayniqsa, she'riyatimizda haqqoniylik va hozirjavoblik kuchaydi. Mustaqillik davriga kelib xalq va mamlakat hayotini yaxshilashga qaratilgan muammolar, oddiy inson qadr-qimmatini tiklash va ko'tarish, ona Vatan va mustaqillik mavzulari tasviri birinchi o'ringa chiqdi. O'zbekiston mustaqilligidan faxrlanish tuyg'ulari baralla kuylandi.

Ana shularni nazarga olib, taniqli adabiyotshunos, professor Umarali Normatov haqli ravishda quyidagilarni yozgan edi: «Istiqloл yillari adabiy hayotda tafakkurda yuz bergan, berayotgan tub burilish va

yangilanishlarga bugun hamma ko'nikib bormoqda. Ularga tabiiy qonuniy bir hol deb qaramoqda. Hozir uzoq yillar ta'qibda bo'lgan diniy mavzuda asarlar yozish, asarlardagi diniy talqinlar hech kimni ajablantirmaydi; yaqin-yaqinlarda «o'ta reaksiya» sanalgan mutasavvuf shoirlar, «millatchi», «jadid» adiblar haqida deyarli har kun radio, televideniya matbuotda iliq gaplar eshitamiz, o'qiymiz; ularning ko'plari hatto maktab adabiyot dasturi, darsliklaridan ham o'rin oldi. Matbuot sahifalarida o'n yil burun bizda tasavvur etish mumkin bo'lmagan mafkuralarda adabiy bahslar ketayapti, «reaksiya burjua adabiy oqimlari» xususida mazmundor maqolalar e'tilmoqda»¹¹. Inson tafakkurining yangilanishida, uning ongiga ma'lum bir g'oyani singdirishda hech qaysi soha adabiyotchalik quvvat va imkoniyatga ega emas. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yangi XXI asr inson tafakkuri taraqqiyotiga, uning tez o'sishi va yangilanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Chunki adabiyot badiiy so'z va obrazlar vositasida omma ruhiyatida tubdan o'zgarish yasaydi. Buning uchun ijod ahli erkin nafas olish, xohlagan mavzusida qalam tebratish, istagan muammosini ko'tarish va, albatta, ko'ngliga ma'qul keladigan qahramon timsoli orqali tasvirlash huquqiga ega bo'lishi kerak. Qariyb chorak kam bir asr mobaynida qog'ozda bor-u, amalda bo'lmagan bunday “erkinlik” adiblarimiz tafakkurini tushovga solib qo'ygandi. Mustaqillik tufayli bu tushov uzildi. Adabiyotga – so'z san'atiga chinakam erkinlik berildi va u qonun asosida mustahkamlab qo'yildi. Natijada, adabiyotda juda katta ijobiy o'zgarishlar yuzaga keldi.

Buning samarasi tez orada aniq ko'zga tashlandi, ya'ni jadallik bilan o'sib borayotgan siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy tafakkurlar ta'sirida adabiy-badiiy tafakkur ham shakllanib, ulg'ayish yo'liga kirdi. Dastlab, odamzodning iqtisodiy bo'hronlar ummonidagi suzish qiyinchiliklari, cho'kish azobi,

¹¹Normatov U. Tafakkurning tozarishi// O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1996. 30-avgust.

ikkilanish, bemaqsad quloch otishlarini real tasvirlashdan o'zini tiygan adabiyot ahli yangi asrning ilk yillaridan boshlab, bu mavzuni jiddiy ishlashga kirishdi.

Hozirgi zamon o'zbek she'riyatida mumtoz adabiyot, xalq og'zaki ijodi, realistik adabiyot an'analari bilan birga modern she'riyat uslubida yozilayotgan she'rlar ham ko'zga tashlanmoqda. XX asr dunyo adabiyotida modernizmning turli ko'rinishlari paydo bo'ldi. Bu adabiyotga xayrixoh bo'lganlar bilan birga, unga salbiy munosabatda bo'lganlar ham anchagina. Chunki bu an'anaviy realistik adabiyotdan tubdan farq qilib, uni tushunish mushkul edi. Bundan tashqari, modernizmning o'zida ham turli yo'nalishlar paydo bo'ldi. Keyingi yillarda modern san'atining har xil yo'nalishlari yuzaga kelayotir. Bular adabiyot va san'at rivojida turg'un voqea bo'lib qoladimi yoki o'tkinchi bir hodisami buni vaqt ko'rsatadi. G'arbda esa bularni yuksak san'at namunalari sifatida targ'ib etayotganlar ham anchagina. Modern adabiyotda ijodkorning fikrlari ko'pincha ramzlarga o'ralgan holda beriladi. Unda bitta emas, bir necha xulosalar chiqarish mumkin. Bu o'quvchining qabul qilish imkoniyatiga bog'liq. Unda oddiy kitobxon tushunishi qiyinbo'lgan ramzlar ko'p uchraydi. Ular o'quvchini tafakkur qilishga aytilayotgan voqea hodisaning mohiyatini chuqur anglashga undaydi, fikrlashga o'rgatadi. Ana shu xususiyatlari bilan ham modern adabiyot shuhrati keng yoyildi. Albatta, modern she'riyati an'analari ruhidagi izlanishlar bugungi kunda silliq kechayotgani yo'q. Bu sohada yutuqlar bilan bir qatorda kamchiliklar ham mavjud. Faqat shaklga berilib, qofiya va bandlarning erkin bo'lishiga mahliyo bo'lib yozilayotgan she'rlar ham ko'p uchrab turibdi. Lekin bu o'qish, o'rganish jarayonida bo'ladigan holatdir. Izlanishlar natijasi bu nuqsonlarning yo'qolib borishiga umid uyg'otadi. Mazkur masala xususida bugungi kunda adabiyotshunoslar ham turli xil mulohazalar qilib o'z fikrlarini bayon etmoqda. Jumladan, Ozod Sharafiddinov A. Otaboev bilan bo'lgan suhbatida ushbu masala xususida bir qator savollarga javob berib o'tadi.¹² Istiqlool davri she'riyatiga nazar tashlaganda, ratsional kayfiyatdagishe'rlar bilan bir qatorda, «dardli ko'ngil izhori» ekanini his qilib, shu yo'lda badiiy topilmalar yaratishga

¹² Sharafiddinov O. Modernizm - jo'n hodisa emas. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2002, 7- iyun

erishganlarning ko'payib kelayotganligini kuzatish mumkin. Samimiy qalb kechinmalarini nazm tilida ifodalagan ijodkorning she'riy namunalarida milliy badiiy an'analar, jahon modernistik oqimlarining ta'siri kuzatilsa-da, ammo badiiy ifoda shakllarini boyitadigan «tasvir vositalari» u qadar o'zgarib ham ketganicha yo'q. Aslida adabiyot, uning bir bo'lagi bo'lgan she'riyat xuddi dunyo singari, zamonlar osha o'zini yangilab boradi. Bu yangilanish yangilangan eskilik hisobiga amalga oshirilishi ham mumkin. Modern she'riyatining mohiyati eski tasvir vositasi yordamida she'riy obrazlarga avval yuklamagan ma'nolarni yuklashda ko'rinadi. "Tanganing ikkinchi tomoni"ga qaraydigan bo'lsak, bu yangiliklarning kamchilik tomoni ham yo'q emas. Shu o'rinda ustozimiz professor Yo'ldosh Solijonovning «Shoir ko'p, ammo she'r-chi?" maqolasini yodga oldik. Maqolada domla bugungi kun she'riyati xususida to'xtalib, xususan, modern she'riyatga ham atroflicha baho beradi, ham xatto ba'zi tanqidlarni aytadi. Olim shunday fikrlarni o'rta tashlaydi: «Keyingi yillarda uchrayotgan kamchiliklardan yana biri qofiyasiz va tinish belgilarisiz she'r yozishga ruju qo'yishdir. Ayniqsa, tinish belgilarini ishlatmaslik she'rning ohangiga ham, mazmuniga ham salbiy ta'sir ko'rsatayapti. Afsuski nomi tilga tushib qolgan ayrim shoirlarimiz ham tinishbelgilariga bepisand qaramoqdalar. Natijada aytilmoqchi bo'lgan fikr to'g'ri anglashilmay qolayotir. Taniqli shoir Bahrom Ro'zimuhammadning «Shafaqtovlanarkan xuddi yoqutdek» degan umumiy nom ostida berilgan beshta she'rida bironta ham tinish belgisi ishlatilmaydi («O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2003- yil, 18- iyul soni). Buning ustiga shoir har bir bandda bir-biriga bog'lanmagan, bir-birini to'ldirmagan faqat o'zigina tushunadigan ramziy iboralarni ishlatadiki, o'quvchi nima demoqchi ekanini tushunolmay qiynaladi:

Dosh bermadi ko'z gavhari

bu tusga

Yam-yashil edi chunki

*Qip-qizildan quyuqroq edi
Ip esholmasdi qop-qora hatto
To 'qroq edi sap-sariqdan ham.*

Bu qanaqa rang bo'ldi? Yoki boshqa bir she'rida dastlab qo'rg'oshinga evrilish haqida gapirib turib, birdan qorbobo tilga olinadi, keyin oy, yulduz, quyosh kirib keladi. Birontasi na estetika, na tarbiyaviy vazifa bajaradi».¹³ Y.Solijonov ushbu fikrlarini B.Ro'zimuhammaddan boshqa bir qator shoir va shoirlar asarlaridan misol keltirib tahlil qilib beradi. Ko'rib turganingizdek, modern she'riyat hayotni, olam va odamni yomon illatlardan yiroq bo'lishini istaydi. Ammo ba'zi "modernchi" shoirlarimiz she'rlarida beo'xshov tashbehlar, umuman izohlash mumkin bo'lmagan tasvirlar ham uchraydiki, ular ham modern she'riyat nomi bilan gazeta va jurnallarimiz sahifalaridan o'rin olmoqda. "Aytaylik, atoqli shoirimiz Rauf Parfi bir she'rida "Chaynagim keladi ko'zlarimni og'zimga solib" degan edi. Bahrom Ro'zimuhammad:

O'z qonimni ichkim keladi juda
maydalagim kelar suyaklarimni, -

deydi. Sh. Hasan o'zini o'zi "yeb qo'yadi":

O'z yog'imda o'zni qovurib
So'ng o'zimni etdim tanovul

H. Ahmedova "Yurak yuki" degan she'rida barcha qovurg'a va umurtqalarini sindirib, ularni "oshig'-moshig'i bilan oppoq bo'yniga osib"

¹³Y.Solijonov. Shoir ko'p, ammo she'r-chi?//O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2003. 18-iyul

olganligi va bundan sevinib, qiyqira boshlaganligi haqida yozadi. Bunday tashbehlerden badaningizda ilon o'rmalagandek bo'ladi.”¹⁴

Bizningcha, kishilarni modern she'riyatdan bezdiradigan ushbu xil holatlardan qanchalik tez qutulolsak, shuncha yaxshi bo'ladi. Negaki, she'riyat barcha zamonlarda ham kishilarni estetik jihatdan ham tarbiyalab kelgan bebaho qadriyatlarimizdan biridir.

Ulug'bek Hamdam o'zining “Yangilanish ehtiyoji” kitobida mustaqillik davri o'zbek she'riyati haqida fikr yuritarkan quyidagilarni keltirib o'tadi: “...Shu bilan birga o'zga bir haqiqatdan ko'z yummasligimiz kerakki, ko'ngilning izhori judayam shaxsiylashib, judayam maydalashib bormoqda. Ko'pincha she'rda ifodalanayotgan tuyg'u, kechinma fikr yoki birvarakayiga hammasining ishtiroki faqat muallifning o'zigagina tegishli, ungagina qiziq, ungagina qadrlil bo'lib qoldi. Ularning salmog'i, ko'lami, darajasi o'quvchining ko'ngil torlarini chertishga qodir chiqolmayotir. Boshqacha aytganda, ularning aksariyatida sehr, o'zgachalik, balandlik va eng muhimi, ko'ngildan ko'ngilga elektr tokidek ulashib ketadigan, ularni yakdil, yakqismat qiladigan yuksak ruhiy-ma'naviy atmosfera ko'zga tashlanmaydi. Hatto, iztiroblar ham birmuncha yuzaki va yuksiz bo'lganidan o'quvchi qalbini larzaga solib, shoir va u o'rtasiga ko'priktashlolmaydi. Natijada, u yonda shoir o'z she'ri va unda aks etgan dardu quvonchi bilan yolg'iz, bu yonda undan ruhiy-ma'naviy ozuqa, orom topmagan o'quvchi o'z qoniqmasligi bilan yolg'iz...”¹⁵

Nima bo'lganda ham, hayot va jamiyatdagi barcha o'zgarishlarning asosi inson tafakkuridir. Tafakkurida o'zgarish bo'lmas ekan, ijtimoiy hayotda ham o'zgarish bo'lishi dushvordir. Hozirgi o'zbek she'riyatining yuzaga kelishi ham shuning mahsulidir. Ma'lumki, o'z navbatida har bir jamiyat o'z muammosini yuzaga keltiradi, bunga muvofiq insoniyatning hayotga qarash tarzini ham o'zgartiradi. Bu

¹⁴Ochilov E. «Siz she'r aytasizmu yo odam qo'rqitasiz?»// «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi. 2004 yil, 17 sentyabr soni.

¹⁵Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji.- Toshkent. : Fan, 2007

ruhiyat bilan bog'liq masaladir. 70 yil davomida ma'naviyat, milliy axloq asosi bo'lgan dinidan, o'tmishda o'zini kim bo'lganligini namoyon qilish qudratiga ega bo'lgan tarixi, milliy qadriyatlaridan mahrum bo'lgan xalq istiqloldan keyin bunga muyassar bo'lgach, unda o'zidan, o'z millatidan g'ururlanish tuyg'usi yuzaga keldi. Chunki u ruhsizlikdan qutuldi, ruhi ozod, hur bo'ldi. Ruhi hur odamning yuragi botir bo'ladi. U hamma narsani yorqin ko'radi, mohiyatini to'g'ri anglaydi. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deydi: «Odamlarda o'zligini anglash, milliy g'urur, oriyat, o'tmishdan faxrlanish, porloq kelajakni o'z qo'limizga olganimizdan g'ururlanish kabi tuyg'ular kamol topyapti, ularning bugungi va ertangi kuniga ishonchi ortib boryapti»¹⁶. Bu fikr bugungi kun adabiyotiga ham tegishlidir.

Ma'lumki, hayotda, jamiyatda ro'y bergan o'zgarish albatta adabiyotda o'z aksini topadi. Bu narsa, ayniqsa, she'riyatda yorqinroq ifodalanadi. Bugungi she'riyat kechagi she'riyatdan tubdan farq qiladi. Kechagi she'riyat ko'proq ijtimoiylashgan, voqealar zahirida ko'proq hayot ziddiyatlarini ko'rsatgan bo'lsa, bugungi she'riyat esa o'z nigohini inson botiniy dunyosiga qaratdi, uning ruhiy olamini, tuyg'ularini ochib berish borasida kishini o'zini o'ziga tanitdi. Bunda u o'ziga xos yaratilgan poetik obrazlardan, ramziy ko'chimlardan foydalandi, ularga alohida e'tibor berdi. Buning asosiy sababi inson ruhining murakkab tabiatini teran va to'laroq ochish, shuningdek, ta'sirliroq ifodalash bilan belgilanadi. Chunki bunga bugunda har qachongidan ham ko'ra ehtiyoj sezilyapti.

Hayot haqiqatidan shu narsa aniqki, shoirning falsafiy tafakkuri, hayotiy mushohadasi lirik qahramon, poetik obrazlar, ramzlar vositasida berilsa, davr ruhini, xalqning orzu istaklarini, inson kechinmalarini ta'sirchan va yuqimli bo'lishiga imkon yaratiladi. Bugungi she'riyatda shunday qilinyapti. Shuningdek, bugungi she'riyatda azaliy an'analarga bo'ysunmaydigan yangi yo'nalish, yangicha usul yuzaga keldi. Bu modern she'riyatidir. Hayotdagi, insoniyat ruhiyatidagi o'zgarishlarni bugungi o'zbek nazmi uni qahramonlari faoliyatida badiiy aks

¹⁶Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. –T.: O'zbekiston, 1996. 226-b.

ettirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan va yorityapti. Shuningdek, u imon va e'tiqod, axloq, ma'naviyatga, milliylikka katta e'tibor beryapti.

Bugungi kun adabiyoti kechagi adabiyotdan bir qancha xususiyati bilan farq qiladi. Ya'ni, odamning qalb iztiroblari, quvonchlarining betakror tahlili va ruhiyatining turfa ko'rinishlari inkishofi hamda voqea-hodisalar tasvirining batafsilligi, ularning har biri maqsad sari yo'naltirilganligi, qahramonlarning o'ta milliy va individuallashtirilganligi, bozor iqtisodining mohiyatini ochib berishi bilano'ziga xoslikka ega. Agar umumlashtirib aytsak, voqea-hodisadan ko'ra, insonning, uning qalbi tahlili birinchi o'ringa chiqqanligi bilan ajralib turadi. Buni ijodkorlar yuqorida ko'rib o'tganimiz she'riy asarlardagi kabi shakliy va mazmuniy mushtaraklikda ifoda etib kelmoqda.

Birinchi bob yuzasidan xulosalar

Mazkur bobga xulosa yasar ekanmiz, quyidagi holatlarga e'tibor qaratish zarur deb o'ylaymiz:

1. Kichik she'riy shakllarning ilk namunalari Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida uchrasa, keyinchalik mumtoz adabiyotda ham, jumladan, Tanish Buxoriy("Abdullanoma"), Atoulloh Husayniy(Badoie' us-sanoiy da 40 da ortiq), Zayniddin Vosifiy("Navoiy zamondoshlari xotirasida" kitobida), Alisher Navoiy("G'aroyib us-sig'ar), Bobur("Boburnoma"da) kabilar ijodida ham ba'zan birlik, ba'zan to'rtlik shaklida uchratish mumkin.

2.Tafakkur va tuyg'uni o'zida uyg'unlashtirgan lirik janr – ruboiy asrlar davomida Sharq she'riyatining yetakchi janri bo'lib kelgan. Olam va Odam muammosini falsafiy jihatdan lo'nda va ta'sirli aks ettirishi tufayli ruboiy she'riyatning falsafiy janri sifatida mashhur. Bu mo'jaz janr o'zining xalqchilligi va imkoniyatlarining kengligi bilan nafaqat shoirlar, balki, mutafakkirlarni ham o'ziga jalb etgan. Lekin ularning ruboiylarida tuyg'uga nisbatan tafakkur ustunlik qiladi.

3.Davr she'riyatida ming yillar davomida axloqiy qarashlarimiz,turmush tarzimiz uchun ustivor mafkura sanalgan islomiy asotirlar va hikoyatlar asosida asarlar yaratildi. Ushbu harakat shoirlarimizning asrlardavomida kuzatilmagan «Arbain», yani qirq hadis asosida she'r yaratish an'anasini davom ettirganliklarida ko'zga tashlanadi.

4.O'tgan asrning 80-yillarida sərbast, verlibr atamaları bilan nomlanib, yoshlar ijodida muayyan yo'nalish ko'rinishini olgan erkin vaznli she'r bugungi kunda modern atamasi bilan o'zining taraqqiyot bosqichini davom ettirmoqda. Bu she'riyat jahon she'riyatining eng yaxshi an'alarini davom ettirib, o'zbek she'rxonlarining ko'ngil mulkiga aylanib bormoqda. Biroq alohida ta'kidlash kerakki, ushbu yo'nalishdagi she'riyatda kishiga estetik zavq berish o'rniga tuyg'ularni to'mtoqlashtiradigan, poetik navofatdan xoli asarlar ham mavjudligi bu borada mualliflarning hali-veri izlanishlari lozimligini ko'rsatadi.

II BOB.

BUGUNGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA SHAKLIY IZLANISHLAR

2.1. Fahriyor she'rlarida poetik majoz

She'riyatda ramziylik. Ramz (simvol) – grekcha “symbol”so`zidan olingan bo`lib, qadimgi greklarda maxfiy bir tashkilot a`zolarining bir-birini tanib olish uchun qo`llanilgan shartli belgini anglatgan. Badiiy adabiyotda ramz keng foydalaniladigan tasvir usullaridan biri bo`lib, aniq tasavvur etish qiyin bo`lgan hodisa yoki tushunchalarni odamlarning ko`z oldida yaqqol keltiradigan narsalar orqali ifodalashni bildiradi.<sup>17</sup> Umumta`lim maktablari uchun yaratilgan adabiyot darsliklarida ramz va ramziy obrazlilikka quyidagicha nazariy ma`lumot beriladi: “Ramz - ko`chimning keng tarqalgan turlaridan biridir. O`quvchi anglashi murakkabroq bo`lgan mavhum axloqiy sifatning shu sifatlarga ko`proq ega bo`lgan narsa va jonivorlar orqali ifodalanishiga ramz deyiladi. Ramz adabiyotshunoslik fanida timsol yoki simvol atamaları bilan ham yuritiladi. O`zbek adabiyotida mayhayot ramzi, chumoli- mehnatsevarlik, gul- ma`shuqa ramzi, burgut -mag`rurlik ramzi va h.k. tarzida qadimdan qo`llanib kelingan.”¹⁸ Bugungi o`zbek she'riyatining an`anaviy tasvir uslubidan farq qiluvchi yangicha obrazlar, kutilmagan ramziy ifodalar, qochirimlar tazod va parodokslar, eng muhimi, betakror, serohang, serma`no ifodalar bilan kitobxonni o`ylantiradi. Fikrning ixcham, lo`nda shaklda ifodalanishi, zamonamiz va zamondoshimiz ruhiy olamini yangi jihatlardan poetik tadqiq etish – insonning bezovta ruhini, dardlarini tasvirlash borasida erishgan yutuqlari o`zbek she'riyati yangi poetik sarhadlarni kashf etayotganligidan dalolatdir. Badiiy adabiyotda obraz asosiy maqsad, fikr va g`oyani ifoda etuvchi vosita. "Obraz - poeziyaning na vaqt, na poetik o`zgarishlar

¹⁷ Adabiyot nazariyasi. 1-jild. Toshkent, 1978 yil, 59-bet

¹⁸ O`zbek adabiyoti (7-sinf uchun darslik-majmua)-Toshkent, “O`qituvchi” nashriyoti, 1997-yil, 112-bet.

xavf sola oladigan eng ustuvor, balki yagona elementi¹⁹ ekanligi ilmiy-nazariy adabiyotlarda ko'rsatiladi.

Badiiy obrazni shakllantiruvchi muhim omillardan biri obrazlilik hisoblanadi. Obrazli ifoda, obrazli nutq deganda, odatda, tor ma'nodagi tasviriy vosita, ibora va ko'chimga boy nutq tushuniladi. Keng ma'noda obrazlilik davr, voqelik, manzaralar, ruhiyat tasvirini tasavvurda jonlantirish hodisasidir. San'atning ba'zi turlarida tasvir obyektlari cheklangan. "Ammo badiiy adabiyotda hayotning barcha tomonlarini jonli obrazlarda aks ettirish mumkin. Buning boisi adabiyotning tasvirlash quroli so'z mulkining o'zidan iborat ekanligidir.

Obrazlilik - so'z orqali tasvir yaratish san'ati. Obrazli ifoda qahramonlar, voqealarni o'quvchi ko'z oldida gavdalantirib, ularning ruhiy kechinmalarini o'z boshidan kechirgandek taassurot uyg'otadi. Kuchli obrazlilikka yo'g'rilgan asar tashbeh-u istioralarsiz yaratilganda ham badiiy qimmatini yo'qotmaydi.

She'riyatda shoir oniy, bir lahzali kechinmalar orqali yuzaga keladigan butun g'oyaviy-estetik mazmunni obrazga singdirishi, ruhiy holat, his-tuyg'ular tadrijini namoyon eta olishi kerak. Ishqiy lirikada bu jihatdan an'anaviy oshiq va ma'shuqa, raqib va do'st obrazi yetakchilik qiladi. Poetik timsol va ramzlar shu to'rt obrazdan birining g'oyaviy-estetik qarashlarini himoya qilish uchun xizmat qiladi.

N.Kostomarov simvol - obraz va simvol - belgini bir-biridan farqlab, ramzlar sun'iy ravishda qabul qilinib, o'ta shartli mazmunga egaligini ta'kidlagan. Timsol faqat adabiyot va san'atga daxldor tushuncha hamda tabiiy, asliy asoslarga ko'ra vujudga keladi. Ramzlar esa ilmiy-texnik, ijtimoiy yo'nalishlarda ham uchraydigan, maqsadli tarzda yaratilgan maxsus belgilardir. Poetik ramzlarda shartli ishora badiiy mazmun kasb etadi. Shoir falak, charx, gardunni tilga olsa, ayriliq va hijrondan so'z ochadi. Ammo charx, gardun ayriliqni ifodalamasligi ham mumkin. Ramzlar shartli belgi bo'lgani uchun o'zgaruvchandir. Vaqt o'tishi bilan ba'zan ijtimoiy davr, ruh oqimlar ta'sirida o'z ma'nosini o'zgartiradi. Ya'ni ramz muallif maqsadiga ko'ra qo'llanilib, ma'nosi matn ichida, keyingi misralarda anglashiladi. Zamiridagi

¹⁹ Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik.1-jild, Toshkent, 1978-yil, 119-bet

yashirin ramziy ma'no faqat shu matn doirasida qolib ketishi ham mumkin. Ayrim oqim, ta'limot, yo'nalishlarga tegishli ramzlarni o'z maxsus kitoblari yordamidagina sharhlash mumkin. Timsollar esa boshqa asar yoki voqelikka ishora qilib, mazmunni o'zida tashiydi. Shuning uchun ramz timsol singari muayyan bir tushuncha doirasida an'anaviylashmaydi. Balki bir predmetning o'zi ramz sifatida turli davr, millat, guruhlar tomonidan turlicha talqin etiladi. Masalan, qon - tiriklik ramzi, hayotdan darak beradi.

Umuman, keyingi yillar she'riyati adabiyotshunoslikda ko'plab bahslarga sabab bo'lmoqda. Bu borada Q.Yo'ldoshevning "Yoniq so'z" kitobiga kiritilgan maqolalar, M.Yo'ldoshevaning "She'r muhimmi, shoir?", U.Hamdamning "Badiiy tafakkur tadriji" hamda N.Rahimjonov, Sh.Hasan, B.Ro'zimuhammadlarning ilmiy maqolalarida she'riyatdagi shakliy o'zgarishlar, so'z qo'llash, ifodaviylikning turli qirralari tahlilga tortilmoqda. Buni adabiyotshunos olim Q.Yo'ldoshev shunday izohlaydi: "...o'tkir gap aytish, dono fikr bildirish, nasihat, aql o'rgatish emas, balki inson ruhining murakkab, ismsiz manzaralarini aks ettirishga e'tibor kuchaydi. Hissiyot qatlamlarini tadqiq etish, odam ruhiyatidagi boy va rangin iqlimlarni poetik kashf etishga urinish kuchaydi".²⁰

Milliy mustaqillikning ijtimoiy-siyosiy ko'rinishi bu milliy mafkura bilan xarakterlanadi. Milliy isiqloqlarning asosiy shartlaridan biri mafkuraviy mustaqillikdir. U o'zida millat taraqqiyotining g'oyaviy yo'nalishini aks ettiradi. Mafkura o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra ham yangilayotgan jamiyatning yo'nalishini, uning qiyofasini belgilab beradi. Milliy mafkura taraqqiyotida milliy an'analarga, qadriyatlar, madaniy merosiing ahamiyati katta. Chunki mafkuraning milliylik xususiyatlari xalqning an'analari va qadriyatlaridan kelib chiqadi. Mafkura konsepsiyasi esa xalqning tarixiy rivojlanishidagi tajribalarini asos sifatida qabul qiladi. Bu o'rinda esa milliy an'analalar va qadriyatlar millat mafkurasiga ham mohiyat, yo'nalish, mazmun va shakl beradi. Shu boisdan ham milliy mafkura

²⁰ Yo'ldoshev Q. Dastlabki dovon belgilari. // Sharq yulduzi jurnali, 2001-yil, birinchi fasl, 8-bet.

taraqqiyotini milliy an'analarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, Bu borada lirika katta rol o'ynaydi.

Milliy mustaqillikning ijtimoiy-siyosiy ko'rinishi bu milliy mafkura bilan xarakterlanadi. Milliy istiqloqlarning asosiy shartlaridan biri mafkuraviy mustaqillikdir. U o'zida millat taraqqiyotining g'oyaviy yo'nalishini aks ettiradi. Mafkura o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra ham yangilayotgan jamiyatning yo'nalishini, uning qiyofasini belgilab beradi. Milliy mafkura taraqqiyotida milliy an'analar, qadriyatlar, madaniy merosiing ahamiyati katta. Chunki mafkuraning milliylik xususiyatlari xalqning an'analari va qadriyatlaridan kelib chiqadi. Mafkura konsepsiyasi esa xalqning tarixiy rivojlanishidagi tajribalarini asos sifatida qabul qiladi. Bu o'rinda esa milliy an'analar va qadriyatlar millat mafkurasiga ham mohiyat, yo'nalish, mazmun va shakl beradi. Shu boisdan ham milliy mafkura taraqqiyotini milliy an'analarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, Bu borada lirika katta rol o'ynaydi. Modern she'riyat ta'siri R.Parfi, B.Ro'zimuhammad, A.Qutbiddin va Faxriyor ijodida ko'proq ko'rinadi. Taniqli olim Ibrohim G'afurov yozganidek, «ular shakldako'proq Nozimga (Nozim Hikmat)va Neruga ergashadilar. Nerudan fikrning quyuqligini, fikrlarning oqim kabi harakat qilishini o'zlashtiradi. Nozimdan esa shakllarning grafiktasvirini , so'zni baland darajali ehtiros nuqtasiga olib chiqishni o'rganadilar».

Zamonaviy she'riyatning o'ziga xosligi aytib bo'lmaydigan sezimlarni shakllar, qabariq tasvirlar, obrazlar orqali mujassam bo'lganida. Modern she'riyatning yanao'ziga xosligi hisni emas, ko'proq fikrlashga o'quvchini undashida. Mantiqiy mushohadadan qochish, g'alatilikka, so'z ma'nolari va shakliy o'yinlarga atay intilish hozirgi she'riyatimiz qiyofasini belgilaydigan omilga aylandi. Aqlga muvofiq xulosa chiqarish mumkin bo'lgan she'rlar bugungi adabiyot uchun eskilik sanalib qoldi. Jahon adabiyotidagi turli tajribalardan yaxshi xabardor o'quvchini bularsiz qoniqtirish mumkin bo'lmay qoldi. Shu bilan birga ko'pchilik shoirlar ham ijodiy yakranglikdan saqlanish yo'lini qidirishga kirishdilar. Bunday izlanishlar adabiyotni rangin she'rlar, betakror obrazlar va kutilmagan tashbehlar

bilan boyitdi. Modern she'r shoirning odatiy mantiqdan tashqaridagi tasavvur va hissiyotlari mahsuli bo'lib, majozga asoslanadi, badiiyatning xususiy qonuniyatlariga tayanadi, unda so'z dastlabki ma'nosidan uzilib, yashirin ma'noga ega bo'ladi, har bir o'quvchi tomonidan xususiy tarzda idrok etilib, undan nozik badiiy did va chuqur bilim talab qiladi, ba'zan qofiyasiz, tinish belgilarisiz, imlo qoidalariga rioya qilinmay yozilgan bo'ladi. Modernizm adabiyotda hamma odatlangan qahramon yaratish yo'sinini rad qildi. Modern bitiklarda ilgari odatlanganiday ijobiy yoki salbiy personajlar o'rniga, har qanday jonli odam singari, turfa jihatlarni o'zida jamlagan murakkab taqdirli inson tasvirlana boshlandi.

Ana shunday she'rlar muallifi Faxriyor (Faxriddin Nizomov) dir. Faxriyor dardlariga tinimsiz shakl izlaydi. Tashbehlar vositasida bir-biridan uzab ketgan voqeliklarni va mohiyatlarni o'zaro yaqinlashtiradi. Bu hol ularni uyg'un holda tasavvur etish imkonini beradi. Uning nazarida, tashbeh – mazmun qofiyasi. Uning ijodida kichik she'riy shakllar alohida o'rin tutadi. Ularni tahlil qilish – kishiga bir olam zavq, qalbiga surur, aqliga tafakkur baxsh etadi. Uning she'riyatida nihoyatda ko'p neologizmlarni kuzatish mumkin. Bu uning chet tillarini ham mukammal bilishiga ishoradir. Uning tarjimalari ham o'zining yuksak badiiy saviyasi bilan ajralib turadi.

Suyak surar... Taqdir ham²¹.

O'zining bu she'ri bilan shoir inson umrining naqadar o'xshashligi, bir inson hayotida ro'y bergan voqea boshqa bir inson hayotida ham takrorlanishiga ishora qiladi. Ma'lumki, faqat kasallikkina suyak suradi. Bu irsiyat bilan bog'liq hodisa. Ammo shoir "suyak surishi"ni mavhum tushunchalarga ham olib kiradi. Taqdirning beshafqat zarbalariga, davrning talato'plariga, turmushning achchiq kechmishlariga inson zotining chidashi,

²¹ Faxriyor. Yulduz kabi jimirlaydi jon.// Yoshlik. 2014-yil, 7-son.

uning irodasi, mashaqqatlar oldida tiz cho'kmasligini bitta misra orqali bayon qiladi.

Ko'ngil bu kecha ham uyda yotmadi.

She'riyat – go'zal bir maskan. Undan bahra oluvchi she'rxon o'z tafakkuriga tayangan holda quyma satrlarni tahlil qiladi. Fahriyorning ushbu she'ridan ham hamma har xil ma'no tuyishi mumkin. Bizningcha, ushbu satr orqali shoir inson ko'nglining inja hislarini namoyon etgan. Keng dunyoga sig'magan ko'nglini ko'cha kezishga, izlanishga, qo'nim topishga undagan. Lirik qahramonning ko'nglidan kechayotgan hislar uning tanasiga ya'ni “uyi”ga sig'madi, shuning uchun, ko'ngil bu kecha uyda tunamadi. U tashqariga chiqib baqirgisi, ko'nglidagisini aytmoqchi. She'rdagi “ham” qo'shimchasi bu yerda alohida ma'no tashish funksiyasini bajargan. Agar, bu qo'shimchasiz she'r o'qilsa faqat bir kungina “ko'ngilning uyda tunamaganini” anglash mumkin. Ushbu qo'shimcha yordamida esa ko'ngil anchadan buyon o'z uyida yotmayotganini, bu hislar unga ko'pdan buyon tinchlik bermayotganini payqash qiyin emas.

Armonlar zirqirar tish og'riqdayin...

Nega aynan tish og'riq?! Nega aynan armon? Sababi, armonlar kishiga uzoq vaqt mobaynida tinchlik bermaydi, dilida tugunchadek saqlanib qoladi. Har gal armon haqda o'ylaganda kishining yoshligi, boy berilgan imkoniyatlari, vaqtida ko'ra olmagan chora-tadbirlari yodiga tushadi. Ibn Sino bobomiz ham “Dardning og'iri – bu tish og'rig'i” – deganlar “Tib qonunlari”da. Tish og'rig'i nafaqat tishga, balki, a'zoyi badanga og'riq beradi, simillab og'rib, bu og'riq anchagacha davom etadi. Shoirning ham armonlari bezovta qilmoqda. Armonlari yodiga tushganda, ular bilan birgalikda ushalmagan orzulari ham

yodiga tushadi. Ular anchagacha tinchlik bermay, kishini o'ylanishga, xayolot ummoniga g'arq bo'lishga majbur etadi.

Oy
tirnoq
ayol
zorlik²²

To'rt so'zdan iborat to'rt misra she'r. Aynan so'zga tanqislik she'rning ifoda siqiligi, ma'noning zichligi va tasavvurni to'la ishga soluvchi kuchini ta'minlagan. Oyning shakli tirnoqqa o'xshash. U tunda osmonda paydo bo'ladi, ayol oyni kuzatadi, u bedor, demak, u kimnidir kutyapti. Va ayol oyga – tirnoqqa zor: u befarzand. Ayol kishi uchun eng katta baxt tirnoq – farzand. Befarzandligidan bebaxt ayol kechalari bedor, butun olam unga shu tun kabi qorong'i tuyuladi va birgina oy tunni xuddi ayol ko'nglini miltirab turgan umid kabi yoritib turibdi. So'zni bunday o'ynatish, unga bu qadar ko'p va chuqur ma'no joylay olish o'zbek modern she'riyatining muhim belgilaridandir. Zotan, shu tufayli she'riy so'z o'zining dastlabki ma'nosidan yuksalib, izlab topishi kerak bo'lgan sirli qiyofa kasb etdi.

Bahor hech narsani esdan chiqarmas
har safar gul qo'yar
har bir qabr poyiga

Har bir yil fasllarining o'z o'rni bor. Jumladan, bahorning ham. Barchamizga ma'lumki, bahor fasli kelishi bilan olam o'z tusini o'zgartiradi. Hammayoq yam-yashil rangga burkanadi. Bejizga xalqimiz bahorni “fasllar kelinchagi” deb atamaydi. Bahorning yurtga kirib kelishi

²²Faxriyor. Ayolg'u. –T.: Sharq matbaa-kontserni, 2000. 165-bet.

ajoyib: u insonning na boyligini, na qashshoqligini biladi; u har kimning uyiga – boyga ham, kambag'alnikiga ham birdek tashrif buyuradi. Garchi sovuq atama bo'lsa-da bahor hatto qabrlarni ham yashnatib yuboradi. Odamlar o'z marhum qarindoshlari poyiga gul qo'yishni unutishi mumkin, ammo, bahor buni unutmaydi. Falsafiy-ironik ruh bor ushbu she'rda.

*Qayda yashamasin odamzod asli
Sangijumon, Rumo yo Toshkand
Aslida bittadir yurakning kasbi
Yurak erkka ixtisoslashgan.*

Vatan, erk mavzusini yoritmagan shoir topilmasa kerak. She'rda shoir ta'kidlaganidek, inson yerning qay burjida yashamasin, u erkin, mustaqil bo'lishi lozim. Qachonki, yurakni qafasga solar ekanmiz biz, o'zligimizdan, o'z fikrimizdan ayrilamiz.

*Gazeta ustiga bostirgin uni
So'zni bostir og'ir kun bilan
vazni yo'q so'zni
to'zg'itmasin ventilyator*

Shoir uchun so'z – ilohiy mo'jiza. Undan unumli foydalanish, keragini aytish, haqiqatni aytish shoir peshonasiga yozilgan. Agar uning so'zlarida ma'no bo'lmas ekan, haqiqiy so'zning yuki bo'lmas ekan, uning jamiyatga nafi yo'q. So'zlayotgan so'zingni behudaga sarflama, har yoqqa uchirma demoqchi bo'ladi shoir.

*3D printerda
og'ir kundan o'zing istagan kunni*

*yasab olmoq uchun asrab qo'y
anor po'stlog'i
isfarak guli
yoki indigo qo'shib
bo'yoq tanlagin*

Og'ir kunlardan ham optimizm yaratmoqchi bo'ladi shoir. Ba'zan hayotda shunday kunlar bo'ladiki, o'zimizni boshqara olmay sal narsaga o'zimiz sevgan, ardoqlagan odamlarimizni bilmagan holda ranjitib qo'yamiz. Yoxud, tirikchilik uchun inson o'zini o'qqa-cho'qqa ura boshlaydi, ba'zida esa ayrim masalalarning yechimi topilmasdek go'yo... Biroq, yillar o'tib, qilgan xatolarimizni tushunib yetamiz, qiynalgan kunlarimiz arziyas kundek ko'rinadi.

*oynalari singan deraza – ko'ngil,
unda na kulning, na gulning aksi bor.
Tindingmi, ko'z yoshim, so'ndingmi, ey dil?*

Toshdan qattiq, shishadan nozik ko'ngil – oshiq makon topishi mumkin bo'lgan yagona qal'a. Muhabbat otgan toshlardan chil-chil bo'lgan ko'ngil parchalarida na gul – yorning, na kul- ishq olovida yonayotgan dilning aksi bor. Ishqning azoblaridan to'kilgan yoshlar sevgi o'tining o'zini o'chirib qo'ymadimikin? Faxriyor she'riyati favqulodda tashbihlari bilan diqqatni tortadi. She'riyatda oshiq timsoli sifatida kelgan bulbul uning qalamida o'zgacha yuk tashiydi:

*bulbulning tilini qamishga boylab
ko'ksimga botirib jonim avaylab*

Shoir nazarida qalam ma'shuqaga o'z ishqini ifodalashi lozim bo'lgan bulbul. Bu qalam ravon yurishi, go'zal va muqaddas tuyg'uni yurakdan tilga ko'chirishi uchun siyoh kerak. Ishq to'la ko'ngil - siyohdon, ko'ngildagi ishq esa siyoh. Faxriyor so'zlarni o'ynatib yuboradi, yondashuv o'zgachaligi, hissiy anglash kuchli bo'lgani bois so'zlar ma'nogina emas rang ham kasb etadi. Uning she'rlari polifonikdir. Unda nechta so'z mavjud bo'lsa, o'shancha ma'no bo'ladi. buning ustiga har bir so'z kamida ikki ma'no tashiydi, bir so'zning albatta, bir necha estetik vazifasi ham bor.

dan

Vaqt ayirar hamma narsa

ni

Oddiy qo'shimchalarning o'zgarishi bilan bu she'rning ma'nosi ham o'zgarib ketadi. Vaqtdan ayiradi hamma narsa, Vaqtni ayirar hamma narsa. Odamzodning eng qimmatli narsasi ham vaqt. Uni oliy hakam deb yuritamiz. Kunlar, haftalar, yillar bizni vaqtdan ayiradi. Faxriyor she'rlari ana shunday o'ylashga, fikr yuritishga, tahlil qilishga, izlanishga chorlovchi asarlardir.

2.2.“Beshnavo” va “Qayirma”larda ramziy-falsafiy talqin

Bugungi o'zbek she'riyati o'z taraqqiyotining muhim hayotiy hodisalarni tasvirlash va dolzarb muammolarni aks ettirishdan ko'ngil manzaralarini chizish va ruhiy holatlarni moddiylashtirish bosqichiga o'sib o'tdi. To'g'ri, bugun ham dolzarb kundalik hodisalariga bag'ishlangan, muhim siyosiy voqealar yoki odam ko'nglining ijtimoiy mohiyati ifodalangan tizimlar yaratilayotir. Lekin aksar hollarda chin she'riyat ko'ngil holatini manzaralashtirish, sezimlar chigalligi va iztiroblar rangini chizish, ranglarning tovushini berishga tutingan. O'zbek she'riyatida Rauf Parfi boshlab bergan bu tasvir yo'nalishi, ifoda yo'sini bugungi

kunda asosiy yo'nalishga aylandi deyish mumkin. Olamni yangicha his etish samarasi bo'lmish hozirgi o'zbek she'riyatida turg'unlik emas, doimiy o'zgarishlar an'anaga aylanadi. Ya'ni o'zgarishlarning tinimsizliga an'ansi paydo bo'ldi, birovni takrorlamaslikning takrorlanishi qaror topdi va bugunga kelib har bitta chinakam shoir nafaqat birovni, hatto o'zini ham qaytarmaslikka harakat qilayotir. Bu holat bugungi she'riyatning yetakchi belgisiga aylandi. E'tibor qilgan kishi zamonaviy o'zbek she'riyatida shiddat bilan qisqalikka intilish jarayoni borayotganini ko'radi. Anvar Obidjon uchchanoq va ignabarglar yaratdi. Azim Suyun to'rt qatordan ortiqrog'u besh qatordan kamroq bo'lgan qayirma janriga asos soldi. Tohir Qahhor, Faxriyor, Ulug'bek hamdam, Tursun Ali kabi shoirlar ikkilik hatto birlik she'rlar yozishyapti. Bu ham shunchaki, tasodif yoki badiiylilikda ketidan quvish bo'lmay, chuqur ichki mantiqqa ega bo'lib, milliy she'riyatda ma'no tig'izlanib, shakl mukammallashib borayotganini ko'rsatadi. Keyingi yillarda yaratilgan o'zbek she'riyati namunalarini ko'zdan kechirar ekanmiz, jahon adabiyotiga xos ilg'or ijodiy an'analarni milliy ruhiyat ranglariga yo'g'irib ifodalash an'analarni ham, yangicha talqin uslubi va yangi shakliy izlanishlarni, an'anaviy uslubning xilma-xil ifoda ko'rinishlarini ham kuzatish imkoniga ega bo'lamiz. Bugungi o'zbek she'riyati markazida turgan lirik qahramon zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg'ularni XXI asr kishisining tafakkur tarzi, ruhiy evrilishlari fonida ifoda etmoqda. Agar istiqlolgacha bo'lgan davr o'zbek she'riyatida lirik qahramon tuyg'ulari ifodasi orqali uning qalbini anglashga, poetik tadqiq-u tahlil qilishga intilish ko'zga tashlansa, keyingi yillarda yaratilayotgan lirika namunalari biz ko'nikkan shakl va uslub chegaralaridan «qalqib chiqib», e'tiborimizni turfa manzaralar tasviriga qaratmoqda. Lirik qahramon nigohi qadalgan manzara qatiga yashiringan ma'nolarni esa kitobxon o'z tafakkur tuyg'ulari, badiiy-estetik idroki va fahmi orqali anglab olishi mumkin. Bu xususiyat she'riyatning sirli-sehrli va rang-barang inson olamini shoir yoki lirik qahramon qanday anglayotganligini tasvirlashdan o'sha betakror insonlarning turfa idroklari-yu his-tuyg'ulariga, ko'ngillariga o'zlari yo'l topishlariga undash, insonni

anglashga intilishdan uning qalbini o`ziga anglatish tomon qadam tashlanganligidan dalolat beradi.

Mana shunday shoirlarimizdan biri Azim Suyundir. Azim Suyun poetik fikrni xalqona ifodalash ustasi sifatida hozirgi o`zbek she`riyatining faxri. Chunki hozirda chinakam folklor asarlari yaratilishi to`xtagan yoki kamayib borayotgan davrda Azim Suyundek shoir noyob hisoblanadi. U fikru tuyg`ularini poetik ifodalashning o`zi uchun qulay bo`lgan “qayirma” deb atalgan janrni kashf etdi. “Qayirma” so`zi shevada obdan yetilgan, tobiga kelgannarsa, ish, amal ma`nolarini anglatgan. Jumladan, qayirma patirnitajribali kayvonilar yopa olganlar. Daryo ham obdon to`lgach, oldin quruqlik bo`lgan yerlarni ham bosib olib, qayir hosil qiladi. Qayirmaning o`zagida “qayishlik”, pishqlik ma`nosi bor. “Qayirma” janrdagi she`rlarning A. Suyun ijodida paydo bo`lganligi ham shu narsa bilan izohlanadi. Shoir she`rlarida ezgulik yengishi uchun yaxshi amallarga ehtiyoj inson ruhiga ko`chishi kerakligi tasviretiladi.

Ey do`st

Bir nazardan el tuzalar,

Sharros tinar-sel tuzalar.

Bitta hikmat menga ayon:

So`z tuzalsa el tuzalar.

She`rdagi “Ey do`st” undalmasi fikrning salmog`ini oshirishga yo`naltirilgan poetik unsurdir. U ayrim o`rinlarda zavqni, ba`zan afsusni, alamni, goh Yaratganni, goh do`stni, goh esa noma`lum odamga da`vatni anglatadi. Ko`pincha “Ey do`st” undalmasi o`tgan umr tufayli kishida paydo bo`lgan o`ksinish tuyg`usini ifodalaydi.

Azim Suyun “Ey, do`st” nomli ming bir qayirmalari bilan eski haqiqatlarni tabiatning sirli honishlari eshligi ila yangicha, ohorli tasvirlashga

harakat qildi. Fikrlarini to'rt va besh misra oralig'idagi satrlar bilan jozibador ifodalashga urindi:

Ey do'st!

Bog'supada uhlab qolibdi bir qiz

Yoyilib oqibdi - sochlar jamalak.

Hayratdan tek qotdim: g'uncha labiga

Qo'nib, bo'sa olar bitta kapalak.

She'r ibtidosidanoq murojaat kayfiyati seziladi. Qolgan satrlarda esa tasvir, fikrning falsafiy va metaforaga xos ifodasi talqin etiladi. Kitobdagi barcha she'rlar ana shunday tenglik asosiga quriladi.

Ey do'st!

Bahor o'zganiki, kuz o'zingniki

Quloq o'zganiki, ko'z o'zingniki

Chibin ham laqmaning og'zini poylar

Tiling o'zganiki, so'z o'zingniki²³.

Shoirning falsafiy mushohadalarida dunyo, insoniyatning azaliy kechmishlari, odamga xos bo'lgan qusurlari illatlar, ezguligu savoblar aks etadi. Ushbu "qayirma"da shoir kuzni "o'ziniki" ekanligini tan olyapti. Sababi, bahor yashnash va yasharish fasli. Biz ichimizdan o'tayotganini o'zimiz bilamiz. Shoir shuningdek, eshitganingga emas, balki, ko'rganingga ishongin demoqchi. Ortiqcha ig'voyu hasadlar insonga faqat ma'nan buzuqlikni olib keladi. Seni tilingdan nima desalar desinlar, ammo, og'zingdan chiqayotgan so'zning o'zing "xoja"sisan, demak, uni boshqara olish, yaxshilikka yo'naltirish faqat o'zingni qo'lingda.

²³Azim Suyun. Ey do'st.// Yoshlik. 2003-yil, 2-son.

Ey, do'st!

Bo'y yetgan qiz emish martaba-amal

Qo'ldagi muz emish davlat-boylik , mol.

Kerilma, barisi tashlab ketarmish,

Kuzgi daraxtlarning barglari misol.

Navbatdagi tahlilga tortilayotgan qayirmada ham shoir insoniyatga nasihat qiladi. Ikkinchi satrda bo'y yetgan qiz - amalga o'xshatilmoqda. Ma'lumki, bo'yi yetgan qizi bor uyga ham shoh, ham gado tashrif buyuradi. Shu o'rinda folklorga murojaat qiladigan bo'lsak, qadimiy ertaklarimizda, afsona va rivoyatlarda ham ushbu yuqoridagi holatni kuzatish mumkin. Kambag'al bo'lsada oqila, chiroyda tengi yo'q, sarishta qizlarni podshohlaru shahzodalar sevib qoladilar. Ularga yetishish maqsadida turfa xil qiyinchiliklari, shartlarga rozi bo'ladilar. Shuning uchun ham qizi bor xonadon boy hisoblanadi. Keyingi qatorda davlatning, molning qo'ldagi muz kabi tez erib ketishiga ishora qilinadi. Ba'zi-bir odamlar amal kursisiga o'tirgandan keyin "bosar-tusar"larini bilmay qoladilar. Tanishlariyu yaqinlariga "tirnoq ostidan" qaraydilar. Biroq, amallari ularni tark etgach haqir-u notavonga aylanadilar. Birov nazariga ilmay qo'yadi. Kuz faslida daraxtlar barglarini to'kkandek, ularning barisi o'tkinchi... Nima bo'lganda ham inson muqaddas nomiga dog' tushirmasligi kerak.

Ey, do'st!

Soydan baliq tutar edi bolakay,

"Nima qilyapsan..? - so'radim atay.

"Baliqlar sovqotib qolibdi, - dedi, -

Ularni oftobda bir isintiray".

Sof bola tilidan aytilgan dialog, yumor bilan yo'g'rilgan suhbat shoirni taajjubga soladi. Faqat yosh bolagagina xos javob, u hali go'dak, u baliqlarning

suvda yashashi-yu, suvsiz bir on ham tura olmasliklarini bilmaydi. Shundoq bo'lsa-da , u hech qanday ta'masiz ularning barisini "isitib qo'ymoqchi". Qayirmalarning sodda, esda qoluvchanligi ta'minlangan.

Ey, do'st!

Bir xursand qilay deb o'z egasini

Soat ildamlatdi yurish tusini

O, buni ko'rdiyu titradi jon-tan,-

Dedi: "Vaqt - insonga yagona dushman"

Vaqtning yugurikligini , hech bir zotga rahm qilmasligini, har ishga o'z vaqtida ulgurish kerakligini uqtiruvchi "qayirma". O'zimiz bilan ovora bo'lib, vaqtning o'tganini, fursatlarning qay tarzda o'tib ketganini bilmay qolamiz. Ulg'ayib, hayotda muayyan yutuqlarga erishganimizda esa Vaqt deb atalmish oliy hakam bu yutuqlar evaziga bizning eng qadrli narsamizni o'g'irlaganini sezib qolamiz. Bu eng aziz narsa- yoshlikdir.

Ey do'st!

Qolmadi odamzod kirmagan go'sha,

Yer-u ko'kda, suvda hozir hamisha.

O, faqat yonma-yon turaru inson

Bir-birin qalbiga kirolmay sarson.

Biz hozirda intellektual rivojlangan, globallashuv zamonini boshidan kechirayotgan, inson o'zga virtual dunyoga bog'lanib qolayotgan, odamzod o'z qobig'ini yorib chiqolmayotgan onda yashayotgan ekanmiz, bizga har qachongidan ham Mehr tushunchasi aziz bo'lib qolayotir. Biroq, o'zgalarning , hattoki o'z yaqinimizning ham ko'nglidan ne kechayotganini bilolmay sarsonmiz. Uning ko'ngli tubidagi istaklarini, maqsadlarini bilolmay ovvoramiz. Shunday

ekan, jonli muloqotga kirishishimiz, yaqinlarimiz holidan tez-tez xabar olishimiz, ichki "men" bilan tez-tez suhbat qilib turmog'imiz darkor.

Ey, do'st!

*Sinchilik qil doim o'zingga o'zing,
Ko'zingdan qochirma enu bo'yingni,
Ko'rdim kimsalarni, ichishib tuzing,
Otingni minarlar, yechar to'ningni.*

Ushbu "qayirma"ni o'qib o'zbek xalqining qadimgi iborasi yodga tushadi: "Tuzimni yeb, tuzlig'imga tupurdi". Demak, non-tuz bergan, ilm o'rgatgan, ustozlik qilgan, hayotda o'z o'rnini topishga ko'maklashgan odamni hech qachon unutmaslik, unga qarshi fitna uyushtirmaslik lozim.

Ey, do'st!

*Ishq -vafo, ishq -jafo jondan kechasiz
Hilol u - Oy bo'lib to'la-to'lguncha
Ishq-chashma, ishq-sharob har kun ichasiz
Va lekin to'ymaysiz o'la-o'lguncha.*

Muhabbat! Qanday ajib tuyg'u! Bu tuyg'u faqatgina Yaratgan tomonidan in'om etiladigan ilohiy ajrdir. Ishqning o'ziga xos qiyin va mashaqqatli yo'llari bor. Oshiq o'z ma'shuqasiga yetishmoqlik yo'lida boru budidan ayriladi. Haqiqiy devonaga aylanadi. Tasavvuf ilmida ham "Ishq", "sharob", "may" ma'shuqa visoliga yetishni ifodalaydi. Inson tirik ekan, u muhabbatga - mehrga intiladi. Kimnidir sevish va u tomondan sevilish yuksak baxtdir.

Ey, do'st!

Ovchiga so'zlaydi jonzotlar izi

*Munajjimga so'zlar tunlar yulduzi
Ne so'zlar ekan deb og'zin poylama,-
Bu jononning menga so'zlaydi ko'zi.*

Ovchi o'z o'ljasini uning izlariga qarab topsa, munajjim tunda yulduzlarga boqib ularning joylashish tartibini ilg'al oladi. Lekin oshiq uchun ma'shuqaning so'zlashishi shart emas. Unga otash nigohlar bo'lsagina bas. U o'z sevgilisini shu qadar yaxshi biladiki, hatto, zabonlar so'zlamasa ham uning ko'zlaridan nima demoqchi ekanligini anglaydi.

*Ey, do'st!
Bas, aytmasam bo'lmaydi, ko'nglimdagi borini
Huzuringga chorlading qaysi yurt dildorini?
Bir juft Surxon xurmosin ko'ksiga yashiribdir
Yo Baxmal olmasini, yo Quva anorini.*

Bu she'r orqali shoir milliy koloritni ko'rsatib bera olgan. Yurtimizning go'zal maskanlarini, ularda yetishtiriladigan mevalarni qizlarga o'xshatgan. Olma va Anor Sharqda sevgi, muhabbat va oila timsoli hisoblanadi.

*Ey, do'st!
Yor qora sochlarin sachratib tol-tol
Orqaga bir silkib tashlaganda dol
Aytsam ishonmaysiz, sho'rlik yuragim
Bir zum to'xtab qolib, so'ng urar alhol.*

Yorning go'zalligi uning uzun sochlarida. Oshiq mudom uning zulflarini ko'rmoq istaydi. Ammo, ko'rganidan so'ng uning yuragi bu visolga dosh berolmaydi, to'xtaydiyu bazo'r urib ketadi. Oshiqqa bundan ortiq baxt bormi?

Ey, do'st!
Qo'llaringda ilonni kulcha qilding,
Nazar qilding, tog'larni kulcha qilding
Qoya kabi tikka, mag'rur shoir edik
Xivichday qiz oldida qulcha qilding.

Metaforalar - tushunchalarning tasavvurdagi uyg'unligidir. Tasavvurni yangilamay turib, na metaforani, na adabiyotni yangilab bo'ladi. Tasavvur tushunchasi erkinlik beradi. Bir nigohi bilan tog'larni kulcha qilmoq har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Shoir o'zini mag'rur, hech narsaga bo'yin egmaydigan deb tasvirlasa-da, xivichday qiz uni quldek ezmoqda, ishq o'tida yondirmoqda.

Azim Suyun ijodida bunday metaforalar salmoqli o'rin tutadi. Umuman olgandauning ijodida xalqonalik, samimiylik, dilkashlik ustun. Shoir she'rlarida ezgulik yengishi uchun yaxshi amallarga ehtiyoj inson ruhiga ko'chishi kerakligi tasviretiladi.

She'riyatda uzoq vaqt davomida kuzatilmay kelinayotgan misralardagi ohangdorlik va shakl yo'nalishi sezilarli o'zgarayotganligini oddiy o'quvchi ko'zi bilan ham ilg'ash mumkin. Bizning e'tiborimizni tortgan jihatlardan biri shundaki, qalam ahli o'tmishda paydo bo'lgan janrlarda ijod qilish barobarida, o'zlari ham yangicha janrlarni yuzaga keltirib, unda nafis so'z o'yinlarini yarata olishmoqda. Ana shunday shoirlarimizdan biri Abdu Nabi (Abdunabi Boyqo'ziyev)dir. Shoir qalamiga mansub turkumlarda so'zning hech bir janr qolipiga mos kelmaydigan ko'rinish yetakchilik qiladi. "Beshnavo"lardan tashkil topgan satrlarda faqatgina beshta so'z orqali ma'no anglash mumkin. Fikr qanchalik qisqa ifodalansa, uning tagzamini shunchalik keng bo'lib boradi. "Beshnavo"larda so'zlar o'zaro ma'no ohangdoshligini tashkil etgan va o'zgacha yo'sinda ifoda etilgan. Albatta, she'riyatdagi bu jarayonlarni kuzatish, tahlil qilish kishiga zavq beradi.

Tog'larning

Havolariga

Havolanib

Tog'larni

*Unutdik*²⁴.

"Qayirma"larda folklor ustunlik qilgan bo'lsa, "Beshnavo"larda ironiya, kinoya ustun turadi. Bu ko'proq falsafiy fikrni berish, undan xulosa chiqarish bilan bog'liqdir. Yuqorida keltirilgan she'rda muallif insonlarning borliqqa, tabiatga bo'lgan munosabatini beshta so'zga joylaydi. Havolaridan va havolanib so'zlariga o'z va ko'chma ma'no yuklaydi. Bu bilan shoir insoniyatni uyg'otmoqqa, tabiatni asramoqni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Kapalak

Hasharot

Degani

Til

Bormaydi

Shoir his-tuyg'ularni nozik anglaguvchi, dunyoni teran nigoh ila ko'ruvchi shaxs. Unda Yaratgan tomonidan yuqtirilgan "dard" bor. Va u ana shu dard bilan yashaydi. Shoir har narsadan - ko'rgan-kechirgan voqeasiyu, oddiy tabiat hodisasidan ham ta'sirlana oladi. Bu hislarni qog'ozga tushiradi. Yuqoridagi she'rda shoir kapalakni hasharotlar safiga qo'shgisi kelmaydi. Undagi chiroy, undagi yengillik hech qaysi hasharotda mavjud emas. Qisqa umri davomida kapalak kishiga faqatgina estetik zavq keltiradi. Bir kun yashasada guldan gulga qo'nib tolmaydi. Shuning uchun donolar uzoq umr bemaqsad sudralib

²⁴Boyqo'ziyev A. Cho'l irog'im.- Toshkent, «O'zbekiston», 2014.

yashagan toshbaqadan, bir kun yashasada, foyda keltiruvchi kapalak afzal deyishadi.

Aylanayin

Qishlog'im

Gado

Yurmas

Ko'chalariningdan

Vatanga bo'lgan sadoqatni, tug'ilib o'sgan maskaniga bo'lgan muhabbatni bundanda ortiq tasvirlab bo'lmasa kerak. Sahroyi badaviylarni yam-yashil vodiya olib kelib qo'ysangiz ham o'zining cho'lini, qumu yantoqlarga boy sahrosini sog'inadi. Muzliklarda yashovchi odamlar ham issiq o'lkalarga sayohatga borsalar, darrovda o'z qoru muzliklarini istab qolishadi. Shu kabi lirik qahramon ham hamma istaklari ro'yobga chiqadigan, yashash uchun eng muqobil sharoitlar yaratilgan shaharni emas, balki, bolalikdan changitib o'tgan ko'chalarini, sodda va samimiy qishloqdoshlarini, borib topish mushkul bo'lgan tug'ilib o'sgan maskanini sog'inmoqda. "Gadoytopmas" bo'lsa-da u maskan shoir uchun qadrlil va muqaddas. Balki, Ona Vatan, aziz tuproq tushunchasi shudir?!

Artistlarday

Samimiy

Tortar

Edi

Ohlarni

Hayotda uchraydigan, bani basharga xos illatlar - ikkiyuzlamachilik, laganbardorlikni shoir o'tkir ironiya ostida tasvirlaydi. She'rda so'z ma'nolarini biridan ikkinchisini kuchaytirib yoki pasaytirib borish uchun uslubiy vosita -

gradatsiyadan ham unumli foydalanilgan bu esa she'rning o'qishli bo'lishini va hissiy-ekspressivligini ta'minlagan.

*O'z
Qusuridan
Qusuringni
Izlaydi,
Vallamat.*

Mazkur she'rning shaklini beshta so'z va ularning turli morfologik o'zgarishlari tashkil qiladi. Mazmun asosini tashkil etgan asosiy hodisa bu metaforaviylikdir. Insonga xos bo'lgan salbiy illatlardan biri takabburlik haqida shoir o'z qusuridanda qusurni axtaradi deb ma'noni kuchaytiradi. Mazmunning serqirraligi san'atkorning boy tajribasidan kelib chiqadi. She'rda lirik qahramonning shakl-shamoyili yo'q ammo uning hayotda qanday inson ekanligini anglab yetish unchalik ham qiyin emas.

*O'tirgandayam
Tik
Turganlardan
Balandroq
Edi*

She'rda ma'nosi bir-biriga zid bo'lgan "o'tir" va "tur" so'zlari ishlatilib, mazmun strukturasiga o'zaro zidlanish xususiyatini bergan. Bu she'rni har bir kitobxon o'zicha talqin qiladi. Bizningcha, bu yerda amal kursisidan tushsada, hayotda o'z ma'naviy qiyofasini yo'qotmagan, o'zligini sotmagan lirik qahramon haqida gap ketmoqda. Shoir o'z she'rida o'tirmoq va turmoq so'zlaridan unumli

foydalangan. "She'r qalb va hayotning qo'shiluvidan dunyoga keluvchi farzanddir²⁵" degan fikrga asosan har bir so'z she'rga ustalik bilan tanlangan.

So'zlarni

Sizlasayam

So'zi

So'z

Bo'lmadi

She'r bu dil taskini. Shoir yayrab ijod qilishi uchun unga botiniy erkinlik zarur. Ba'zi shoirlar bo'ladiki, ular ijod qilsa, quyma satrlar she'r bo'lib tug'iladi. Ularni o'qib ta'sirlanmaslikning iloji yo'q. Ammo ba'zi bir shoirlar bo'ladiki ular she'rida qofiya bor-u, jarang yo'q, shakl bor-u mazmun yo'q. Undan tashqari, tasvir va ta'sir, hissiy ekspressivlik, bo'yoqdorlik, singari unsurlar ba'zi she'rlarda umuman uchramaydi. Ana shundaylarga nisbatan yuqoridagi misralarni aytging keladi.

²⁵Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. - Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. - Б.160

II bob bo'yicha xulosalar

Ushbu bobga yakun yasas ekanmiz, undagi aytilgan fikrlardan quyidagi xulosalarni bayon etishni lozim topdik:

1. Azim Suyun zamonaviy she'riyatda badiiy topilma ixtiro qildi. Chunki hozirda chinakam folklor asarlari yaratilishi to'xtagan yoki kamayib borayotgan davrda Azim Suyundek shoir noyob hisoblanadi. U fikru tuyg'ularini poetik ifodalashning o'zi uchun qulay bo'lgan "qayirma" deb atalgan janrni kashf etdi. Bu "qayirmalar" o'zining tuzilishi jihatidan puxtaligi, samimiyligi bilan ajralib turadi.
2. She'r – oniy tuyg'ular ifodasi deb bejizga aytilmaydi. Lekin Abdu Nabiga xos ixchamlikda mukammallik, butunlik bor. Shoir ijodida ortiqcha uzun-cho'ziq she'r deyarli yo'q. Hatto, uning dostonlari ham bir nafasda o'qigulik. Uning eng yirik manzumasida ham, sakkizligida ham fikriy izchillik, hissiy dramatism mavjud. Ayni shu jihatlar "beshnavo"lardagi taranglikni, shiddatlilikni ta'minlab turadi.
3. Ikkala ijodkor she'rlarida ham tashbehlar, ramzlar she'rga jilo, jozibagina emas, badiiy quvvat, ruh ham ato etishini shoirlar yaxshi anglaydilar. Aslida ramzlarga, obrazlarga boylik ham shunchaki mehnatning mahsuli emas, balki, chinakam iste'dod, savqi tabiiylik alomatlaridandir.
4. Azim Suyun va Abdu Nabi so'z qo'llashni, so'zdan foydalanishni yaxshi biladilar. Ular majoziy obraz, iboralardan tashqari oddiy xalq tilida uchraydigan xonaki so'zlarni joyida, o'rinli qo'llashni adabiy tildan chekinish deb bilmaydi va ular to'g'ri qiladilar deb hisoblaymiz.
5. Kichik she'riy shakllar kamchiligi shundaki, ularni har kim o'zicha nomlaydi. Lekin, hech kim janr sifatida bir xil nom bilan nomlamaydi. Asqad Muxtor tungi kechinmalariga badiiy tartib berib, g'oyaviy-falsafiy yo'nalishga ega bo'lgan ixcham fikr ko'rinishlarini yaratdiki,

ular yozuvchi ta'biri bilan aytganda "keksalik, hastalik sabab, uyqu qochganda bosh-keti yo'q, uzuq-yuluq o'y-xayollarni tunchiroq ostida turgan daftarga yozib qo'yish" natijasida jam bo'ldi. Kundalikdan farqli o'laroq ushbu muxtasar daftar "Tundaliklar" deb nomlandi. Anvar Obidjon "ignabarg", "uchchanoq" deb birlik va uchlik shaklida falsafiy aforizmlar bitgan bo'lsa, keyinchalik, Farida Afro'z ijodida "fiqra" va "tasbeh" lar paydo bo'ldi. Adabiyotshunos olim Ibrohim G'afurovning bir necha turkum nasriy nazmlari – mansuralari adabiyotda ayricha fusunkorlik kashf etdi. Azim Suyun "Ey, do'st" nomli ming bir qayirmalari bilan barchani mamnun etdi. Undan so'ngAbdu Nabi atigi besh so'zdan iborat "Beshnavo"larni taqdim etdi. Bu beshta so'z o'zaro ma'no ohangdoshligini tashkil etgan va o'zgacha yo'sinda ifoda etilgan. She'riyatda boshdan-oyoq "oltilik" janrida ijod qilgan shoirlar ham borki, ular haqida atroflicha so'z yuritish mumkin. Ular orasida Isroil Subhoni ijodi ta'sirchanligi bilan e'tiborni tortadi. Muallifning "Shashqator" nomli oltiliklardan iborat kitobida she'riy vazn me'yor qoliplariga singimay, alohida janr sifatida pog'onaga olib chiqiladi. Bundan tashqari Tohir Qahhor, Ulug'bek Hamdam, Faxriyor kabi shoirlar birlik she'rlar yaratdilar. Go'zal Begim, Tursun Ali, Iqbol Mirzo kabi ijodkorlar nomsiz uchliklar yaratdilar. Bularning barisi she'r zamiridagi g'oyaning ko'lami kattalashib, tomchida quyosh aks etayotganidan darak beradi.

III BOB

HOZIRGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZNING SHAKLLANISH JARAYONLARI

3.1. Tursun Ali ijodida uchliklar

Hozirgi o'zbek she'riyati davr bergan, milliy istiqlol bergan ijod erkinligidan foydalanib, mavzu qamrovini tobora kengaytirib borayotgan, turli shakllar vositasida kitobxonlar ruhiyati va shuuriga yo'l ochayotgan she'riyatdir. Ijtimoiy ongning barcha sohalari singari she'riyat ham taraqqiyot jarayonida davom etmoqda. Uning bugungi samaralarini kuzatish, taraqqiyot tamoyillarini, taraqqiyotni ta'minlayotgan asoslarni o'rganish va targ'ib qilish bugungi adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biridir. Zamonaviy o'zbek she'riyati o'zining yangi ko'rinishlari bilan ham kishi ko'nglini quvontiradi. Ma'lumki, har qanday yangilik, taraqqiyotning ildizlari har qanday davr bilan, zamonni, davrni to'g'ri idrok qilish bilan bog'liq ravishda paydo bo'ladi. Inson tafakkuri takomillashgani sari hayotga munosabati, qarashi ham yangilana boradi. Adabiyotimizda keyingi yillarda modernizm atamasi bilan atalayotgan ijodiy yo'nalish ham shunday yangilik xarakteriga ega hodisadir. XIX asr o'rtalariga kelib, ayrim ilg'or fikrli Yevropa ijodkorlari voqelikni bevosita tasvirlash va unga taqlid qilishdan bevosita chekina boshladilar. Ularning nazdida voqelik ijodkorlar imkoniyatini ko'p jihatdan cheklab qo'yadilar. Bu borada norveg olimi Espen Xovardsxolm shunday yozadi: "Bugun biz shunday san'at bilan ro'parama-ro'para kelib turibizki, bu san'at haqiqatga o'xshashlik talabini inkor etadi. Bu san'at voqelikni boshqacha tarzda qabul qilishga intiladi. Boshqacha biron yaxshiroq so'z topa olmaganlari uchun zamonaviy san'atni "modern san'at" deb atamoqdalar"²⁶. Ijod maydoniga ham boshqacha andozalar bilan yondashmoq kerak degan tushuncha – aqidalar paydo bo'ldi. Ana shu yillari Freyd o'ziga xos tushlar ta'birini keng jamoatchilikka havola qilgandi. Bu esa ko'plab ijodkorlarni hayotga

²⁶Espen Xovardsxolm. Modernizm. //Jahon adabiyoti, 2001-yil, 1-son. 197-bet.

yangicha nigoh bilan qarashga unday boshladi. Insonning botiniy olamiga ilk yo'lak ochilgandi. Azaliy tushunchalar, an'analar chilparchin bo'lib ketgan edi"²⁷.

Shunisi quvonchliki, jahon adabiyotining ilg'or qarashlari, shakl vaaqidalari bilan qurollanib, uning taraqqiyotini ta'minlashga harakat qilayotgano'zbek shoirlari tomonidan ham modern she'riyatning sara namunalari yaratilmoqda. Rauf Parfi, Faxriyor, Bahrom Ro'zimuhammad kabi ko'plab shoirlarimiz yaratgan modern she'riyat namunalari allaqachon she'rxonlarimizning ko'ngil mulkiga aylanib ulgurganligi fikrimizning dalilidir. Ma'lumki, moddiy borliqning aniq tasviri ta'sirchanlikni oshirish bilan birga lirik qahramonning eng nozik tuyg'ulari va kechinmalarini hamifodalashga xizmat qiladi. Modern she'riyatning yana bir xususiyati shundaki, unda so'zan'anaviy she'rlardan o'zgacha quriladi, shoir pozitsiyasi aniq ko'zgatashlanib turmaydi. Aksariyat holda tinish belgilari ham qo'yilmaydi. Chunki fikr ong oqimi kabi miyada tinimsiz oqadi, kishiga tinchlik bermaydi.

Adabiyotshunosligimizda she'r ilmiga alohida e'tibor bilan yondashish an'anasi azaldan mavjud. Adabiyotimizda paydo bo'lgan har bir o'ziga xos shoir va uning ijodi haqida tanqidchilar tomonidan fikr-mulohazalar bildirib kelingan. Shunday bo'lsada, chin iste'dod va uning mahsuli bo'lmish she'riyatni oxirigacha anglab yetish, u haqda mutlaq fikr bildirish imkonsiz. Buning boisi iste'dodning betakrorligida, uni berish mumkin bo'lmaganidek, olib qo'yishning ham iloji yo'qligida, boshqarish esa mutlaqo mumkin emasligidadir. Shoir istagani uchun emas, shoir bo'lib tug'ilgani sabab va ko'ngliga kelganiday emas, qofiyalar bilan qurollangan, to'g'ri hijolarga bo'lingan shaklda quyilib kelganiday she'r yozadi. Shoirlik iste'dodi tug'maligi ijodkorning hassos, ta'sirchan bo'lishi, so'zmohiyatini g'ayriushuuriy tarzda ham to'g'ri anglay olishi va uni xuddi shu yerda, shu so'zlardan keyin qo'llashi kerakligini ilg'ay bilishi, nutq va asab tizimining o'ziga xos ishlash qobiliyatiga egaligida namoyon bo'ladi. Bolalikni, bolalarga xoshayratni saqlay olish iste'dod so'nmasligiga kafolatdir. Ijtimoiy-axloqiy

²⁷ Адам Бретон. Манифест сюрреализма. -М.: 1986, ст.40

cheklashlardan xoli, ta'sirchan va asosiysi, uchqur tasavvurli bolagina she'r matnini shaklan va mazmunan uyg'unlashib ketgan jonli so'z sifatida qabul qiladi. Va shoirgina bolalikdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hamda boshqa cheklovlardan yuqori turish, ta'sirchanlik va boy tasavvur qobiliyatini o'zgarishsiz saqlab qola biladi. Bu shoirlikning bosh talablaridan biridir, zero «bolalikda, hali hech qanday cheklovlar yo'qligida inson bir paytda bir necha hayotda yashash imkoniga ega bo'ladi va u bu xayolotga to'lig'icha cho'madi. Barcha shoirga xos bu xususiyatlar har bir ijodkorda o'zgacha yo'sinda namoyon bo'ladi. Adabiyot bolalik dunyosi bilangina joziba kasb etadi, chunki formal mantiqqa asoslanmagani holda o'ziga xos mantiqli tasavvur badiiyatning asosiy unsurlaridandir. Biror qonuniyatga amal qilib yaratilgan asar, ko'pincha, o'lik bo'ladi. XX asr oxiri she'riyatida ana shu holat teran ilg'ab yetildi. Albatta, ungacha ham o'zbek adabiyotida bunday tasvir yo'sini yo'q emasdi. Ammo u milliy she'riyat qiyofasini belgilab beruvchi tamoyil darajasiga yetmagandi. Faxriyor, Bahrom Ro'zimuhammad, Ulug'bek Hamdam, Tursun Ali, Aziz Said, Go'zal Begim, Sanobar Mehmonova kabi shoirlar ijodini bu o'ziga xos mantiqsizlikning mantiqli bo'laklari sifatida tekshirish fikrimizning asosli ekanini ko'rsatadi. Mantiqiy mushohadadan qochish, g'alatilikka, so'z ma'nolari va shakliy o'yinlarga atay intilish hozirgi she'riyatimiz qiyofasini belgilaydigan omilga aylandi. Aqlga muvofiq xulosa chiqarish mumkin bo'lgan she'rlar bugungi adabiyot uchun eskilik sanalib qoldi. Jahon adabiyotidagi turli badiiy tajribalardan yaxshi xabardor o'quvchini bularsiz qoniqtirish mumkin bo'lmay qoldi.

She'r shakli shoirning voqelikka nisbatan nuqtai nazaridir. O'tgan asrning 80-90 yillaridagi tarixiy sharoit hayotda yangi tamoyillarni tug'dirdi. Shunga ko'ra adabiyot va san'atda ham yangicha badiiy ifodalar, yangi ta'sir vositalari paydo bo'la boshladi. Ayniqsa, adabiyotimizda biz ko'nikkan bir xillik chegaralari buzilib, xilma-xillik nishonalari ko'rindi. Demak, yangi davr – mustaqillik davri kelishi bilan yangi shaxsning – ma'naviy-axloqiy, madaniy qadriyatlariga shaxs, millat, Vatan manfaatlari nuqtai nazaridan yondashayotgan shaxs ruhiyatidagi murakkab jarayonlarni yangi shakllar va badiiy timsollarda jonlantirish talabi davr taqozosiga

aylanib qoldi. Bugungi kun kishisiga xos bo'lgan tuyg'ular, kechinmalar so'z san'atida ham o'ziga xos tarzda ifodalanadigan bo'ldi. She'r har tomonlama yangilana boshladi. Jumladan, she'rning muhim tarkibiy qismi hisoblanmish band ko'rinishlarida ham ma'lum bir o'zgarishlar yuzaga keldi. Buni she'riyatimizda anchagina tarmoq ota boshlagan uchlik shakli misolida ko'rib o'tamiz.

Uchlik shakli, avvalo, o'z adabiyotimiz zahirida, og'zaki ijod ta'sirida paydo bo'lgandi. Hozirgi kunda Rauf Parfi, Anvar Obidjon, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Tursun Ali kabi shoirlar ijodida uchlik she'rlar mavjud.

" Eng mustahkam geometrik figura teng yonli uchburchak hisoblanadi. Uchlik ham teng misrali, qofiyalar bilan bog'lanadi"²⁸. Uning har bir satri she'riy band qurilishini mustahkam tutib turadi. Bu shakl ongimizda mustahkam o'rnashadi, ularda ko'pincha piramidalar yanglig' buyuklik, ulug'likni anglatuvchi hissiyotlar ham beriladi. Uchlik xuddi teng yonli uchburchak kabidir – har bir satr teng vazifa bajarmog'i kerak. Misralari qofiyalari bilan ham bog'langan. Biroq hozirgi davr lirikasi tajribalaridan ko'rinadiki, milliy adabiyotimiz an'analaridan tashqari holatda kirib kelgan uchliklarda bunday emas. Ushbu shakldagi she'rlarga A. Vyazemskiy shunday ta'rif bergan edi: "Qofiyasiz yaxshi she'rlarni o'qir ekan, doim miyamga bir fikr keladi: afsus bu tizmalar she'rga aylanmay qolgan". O'z davrida shoir an'anadan chekinishini qabul qilolmagan bo'lsa ham, ularning yaxshi she'rlar ekanligini tan olgan. Xuddi shuningdek, bugungi kunda ham she'r mezonlariga to'liq rioya qilmagan she'rlar ichida ham yaxshi asarlar uchraydi. Modern - zamonaviy, yangi, hech kimga o'xshamagan singari tushunchalarni bildiradi. Shu ma'noda Tursun Ali she'riyatida o'zga yo'l ochgan - o'zi mustaqil she'riy janr yaratgan - hech kim yo'l solmagan oppoq qor ustidan yurib o'tgan...

Uning she'rlarida tuyg'udan ko'ra aqlning o'rni, xizmati ko'proq.

Bolalikdagidek daraxt panasidan, ha

²⁸Гулбаҳор Саидғаниева. Уйғонмадим сенинг кўксингда.// Жаҳон адабиёти. 2009-йил 5-сон.

*O'g'rincha tikildim senga yonib, qimtinib.
Tag'in ko'zlarimdan toshar, gullar hayajon.*

Shoir yuragida qanotlari kesilgan qushday talpina-talpina arg'imchoq uchayotgan Bolalik Tursun Alining so'nggi yillar mobaynidagi eng turg'un kayfiyatidir. Yo'qsa, u Bolalikka bag'ishlab o'nlab, yigirmatalab she'r yozmagan bo'lur edi.

*Otayotgan tongga emas yo'q,
Botayotgan kunga qarayman goho.
Umr musichaday qo'nim izlar sargardon.*

Nega shoir biz o'rganganimizdek tong otishini emas, kun botishini poylaydi? Sababi, Kun - Yakun, Kun- Xulosa. Barcha ishlarimizni tongdayoq rejalashtiramiz, sarhisobni esa kun botgach amalga oshiramiz. Shoir o'z umrini bir kunga tenglashtirib, uni yakunlaganda umrning musichaday qo'nim izlayotganini, hayotda o'z o'rnini topmoqni istayotganini guvohi bo'lamiz.

*Daryo sohilida yo'l yurdim uzoq,
Arslon, yo'q, tulpor pishqirar go'yo.
To'lqinlar yolini silagim keldi.*

Shoirning metaforalari ajib ma'no aks etadi. Daryo yonidan o'tayotgan lirik qahramon bamisoli asov otdek to'lqinlarni ko'rib, hayratlanadi ularni arslondanda kuchli ovoz tulporning pishqirishiga o'xshatadi. Oqayotgan to'lqinlar yolni eslatadi. Shoir ularni tarab, tinchlantirmoqchi, daryo hovurini bosmoqchidek go'yo.

*Bunda men -yolg'izman, unda sen- yolg'iz,
O'rtada cho'zilgan hijron poyondoz.
Ikkimizni izlar kechikkan sevgi.*

Har ikki tarafda sevishgan yuraklar ohi... yetisholmagan muhabbat, bir umrlik hijron, yillar soya solgan ayriliq... Oshiq hijronni o'rtalarida poyondoardek cho'zilganini ta'kidlaydi. Visoldan esa darak yo'q. Kechikib kelgan sevgi esa sevishgan dillarni kech bo'lsa-da, qidirmoqqa tutingan.

Poyida o'ltirdim, kuyib ketibdi daraxt,

Bir kun uchrashgandik ikkimiz bunda .

Buzilmay qolibdi sevgi qurgan in, qara.

Yillar o'tsada, eski dardlarni yodga soluvchi g'am - bu muhabbat... Bir paytlar yashnagan daraxt soyasida o'ltirgan ikki dil bugun birga emas. Totli suhbatlarga guvoh bo'lgan, oshiq va ma'shuqning diydoriga hamisha mezbonlik qiluvchi daraxt- endi yo'q... Ammo muhabbatdan ertaklar aytguvchi, mustahkam qalblarda toblanib yaratilgan ramziy in - haliyam mavjud. Muhabbat - boqiydir. Muhabbat -abad!

Do'stim olma berdi qip-qizil,

Uhlatmadi dimog'imga taralgan bo'yi.

Asrlar qa'ridan kelgan sevgi izhori misoli

Olma- Sharqda sevgi, muhabbat tarannumi. Oshiq o'z sevgilisiga uzundan-uzoq maktublar yo'llamasada, mahbubi bilan diydorlashib unga bo'lgan sevgisini ochiq oshkor aytolmasa ham, Yor hadya qilgan olma unga barchasini ayon qiladi. Olmaning dimoqqa uruvchi totli bo'yi esa lirik qahramonga o'z yoshligiga qaytish, beg'ubor onlarni qo'msashga yordam beradi.

To'lqinda chirpirak qayiq misoli

Soching to'fonida adashdim rosa,

Yuragingdan o'zga yo'l yo'qdek go'yo.

Soch- tasavvuf adabiyotida ham yo'lga o'xshatiladi. Sochning uzun bo'lishi Haqqa yetadigan yo'lning uzunligi, jingalak bo'lishi esa Yaratganga eltadigan yo'lning naqadar mashaqqatli ekanligidan dalolat beradi. Bu uchlikda ham yorning sochi dengizga qiyoslanib, to'lqinlar uzra oshiq to'fonda qoladi. So'nggi misrada oshiq yorga soch orqali emas, balki, yurak orqali yetishmoqlikni niyat qiladi.

Teraklar barg yozar, gullar o'rikzor,

Maysalar sochida qolgan izingga

Boshini ko'tarib boqar majnuntol.

Tursun Ali ijodida bahor fasli tarannumi yetakchi o'rinda turadi. U bahorni barcha fasllardanda yuksakroq rutbaga qo'yadi. O'quvchi ko'z o'ngida bahorni xuddi o'n sakkiz yosh qizdek tasvirlaydi shoir va go'zal tashbehlar istifodasida abadiy bahorga murojaat qiladi.

Uyimdan uzoqda

Biroq

Yashayman uyimda

Tursun Alining shoirligini ko'rsatib beradigan she'rlar Vatan mavzuiga bag'ishlanadi. Lekin ularning hammasida ham Vatan so'zi, odatdagi otashin va yolqinli xitoblar ishtirok etmaydi. Shunga qaramasdan she'rlar Vatan haqidadir. O'z uyidan yiroq bo'lsa-da u vatanida yashayapti. Demak, u ertangi kuniga to'liq ishonadi, Vatani quchog'ida emin-erkin yashashi mumkin. Vatani istagan paytida uni himoyasiga oladi. Lirik qahramon vatanidan yotsiramaydi.

Kecha... Barkashday oylarni qora bulutlar ajdari yutar

Qara daraxtni qo'porguday shamolning

Zalvorli qo'llari chang solar unga

Ushbu misralardagi tun tasviri she'ning emotsional kayfiyatida muhim rol o'ynagan. Bulutlarning to'lin oy yuzini berkitishi, daraxtni qo'porgudek esayotgan shamolning holati, keksa daraxt poyida sarg'aygan yaproqlarning xor bo'lib yotishi, burglar aro sap-sariq shamol esishi kabi peyzaj tasvirlari qalb tug'yonlaridan dalolat beradi.

Qorong'i tun, oy, yulduzlar bulut ortida

Ko'zlarimda uyqu yo'q, men ham

Darbadardek kezaman nuqul

Shamol yelgan tunning qo'ynida

Tezroq tong otaqolsaydi...

Shoir inson ruhiyatining yashirin olamini kuzatishga, uni tadqiq etishga intiladi. Misralarda ifoda etilgan peyzaj tasviri lirik qahramonning ruhiyatidagi tundlikdan dalolat beradi. Oy, yulduzlar bulut ortiga berkingan qorong'u bir tunda uning bedorligi o'quvchini o'ylantiradi. Band so'ngida ruhiyatdagi tundlik holatining sababi oydinlashadi: Tezroq tong otaqolsaydi... Lirik qahramonning iztirobli qalbi qorong'u kechada yanada tundlashgan. U tong otishi bilanoq qalbidagi behalovatlikning tumandek tarqashidan umidvor. Sokin tun bg'rida turli o'y-fikrlar bilan yolg'iz qolishdan qo'rqqan lirik qahramon shu sababli ham tongni intizor kutmoqda. Zora, bu tong uning qalbiga iliqlik olib kirs.. Shoir bu misralarda tun tasvirini berish orqali inson ruhiyatining nozik nuqtalarini ochib bergan.

Hozirgi o'zbek she'riyatida yangicha ruh, yangi falsafa yaqqol ko'rinib, o'zining teran ifodasini namoyon etayotir. Izlanishlar shakliga, turfa xilligiga qaramay, inson ruhiyatini zamonaviy uslubda badiiy tadqiq etish o'quvchidan

nozik didni, o'tkir zehnni, qolaversa, jahon adabiyotidan xabardorlikni talab etadi. Tursun Ali ijodini o'rganishda yuqorida sanab o'tilgan omillar muhim hisoblanadi.

3.2 Shermurod Subhon ijodida badiiy tasvir vositalarining teranlashishi

Har bir ijodkor qalam tebratar ekan, badiiy ifodani mazmunan quyuqlashtirish, uni his-hayajonlarga to'ldirish uchun so'z salohiyatiga tayanadi. Har bir so'z shakl-shamoyili, rang-bo'yog'i, o'z salmog'i va ohangiga ega. Har bir ijodkor oddiy so'zlovchidan so'z sohibiga, undan esa so'z san'atkoriga ko'tarilishi uchun "so'z sezgisi", "so'z jozibasi", "so'z sehri" kabi bosqichlarni egallashi lozim. Shoir qalam tebratar ekan, uning ixtiyorida bir necha vositalar mavjud. Bu vositalarning eng muhimlari badiiy tasvir vositalari, she'riy san'atlardir.

She'riy san'atlar yillar mobaynida adabiyotshunosligimizda shakllanib, "ilmi bade" nomini olgan badiiylik ilmining asoslaridir. Ular asar jozibasini ko'rsatish va shoir mahorat qirralarini ochishga xizmat qiladi. Yozuvchilar tasviriy vositalar yordamida o'zlari tasvirlayotgan narsa va hodisalarning ba'zi bir tomonlarini, yoki belgisini aniq va qisqa xarakterlab berishga erishadilar. Shoir har bir hodisani aks ettirganda, uning muayyan sharoitda muhim hisoblangan sifatini ajratib ko'rsatadi. Shuning uchun ularni o'quvchilarga o'rgatishda yangicha yondashuv, o'zgacha usul va shakllarga murojaat qilish kerak. She'riy san'atlar siz va biz o'zlashtirgan til birliklari, kundalik hayotda uchraydigan yaqin va tanish tushunchalar orqali singdirilsa, mashg'ulotlar jonli kechadi.

Badiiy adabiyotda keng qo'llaniladigan tasviriy-ifodaviy vositalardan biri o'xshatishdir. Shoir va yozuvchi muayyan narsa-hodisa yoki uning asosiy belgilari haqida kitobxon ongida aniq hosil qilish maqsadida uni qandaydir boshqa, tanishroq narsa-hodisaga yoxud uning belgilariga o'xshatadilar. Mumtoz adabiyotda o'xshatish "tashbih" deb ham yuritilgan. O'xshatish tasvirlanayotgan narsa-hodisa yoki uning asosiy belgilarini yorqinroq, aniqroq qilib ko'rsatishga xizmat qiladi.

“Badiiy matnda ko’chimlar turli ko’rinishlarga ega bo’lib, ularni ko’pchilik adabiyotlarda ”troplar” deb ham yuritiladi. Ko’chimlar deyilganda adabiy asarning badiiy qiymatini, ifodaliligini, ekspressivligini kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko’chirish yoki so’zlarning umuman ko’chma ma’noda ishlatilishi” nazarda tutiladi²⁹.

Ko’chimlar quyidagicha tasniflanadi:

1. So’z ma’nosining miqdoriy ko’chishiga asoslangan ko’chimlar;
(giperbola va meyozis)
2. So’z ma’nosining sifatiy ko’chishga asoslangan ko’chimlar;
(metafora, metonimiya, ironiya)

Boshqa tasvir vositalari mazkur ko’chimlarning ko’rinishi sifatida beriladi. Simvol, jonlantirish, epitet, apostrofa-metaforaning, perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet- metonimiyaning; antifraza, sarkazm – ironiyaning; litota- meyozisning ko’rinishlaridir. Tasviriyy vositalarning deyarli barchasida o’xshatish, chog’ishtirishdan iborat tushuncha yotadi.

Maxsus ifoda tasviriyy vositalar troplar va figuralar deb ikkiga bo’linadi. Maxsus ifoda tasviriyy vositalari tilde obrazlilik, hissiylik keltirib chiqaradi. Ulardan foydalanish bilan muallif tinglovchining sezgisiga ta’sir qiladi. Bundan tashqari bayonda qisqalikka, aniqlikka erishiladi. Buning uchun esa ma’lum shart-sharoitlar kerak bo’ladi. Birinchidan, notiq ifoda tasviriyy vositalarining tabiatini, xususiyatini yaxshi tushungan bo’lishi kerak. Ikkinchidan, ifoda tasvir vositalariga, nutqni bo’yash, haddan tashqari ko’p o’rinli-o’rinsiz murojaat qilmasligi lozim. Ularning ishlatish o’rni, payti, vazifasini yaxshi tushunishi kerak. Aks holda nutq buziladi, tinglovchi yoki o’quvchida o’sha nutqqa, u orqali muallifga nisbatan salbiy munosabat uyg’onishi mumkin.

Hozirgi o’zbek she’riyatida o’ziningovozi va o’rniga ega shoir Shermurod Subhon ijodida badiiy tasvir vositalarining qo’llanilishi borasida quyida izlanishlar olib borilgan.

²⁹ Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo’ng’urov R., Rustamov H. O’zbek tili stilistikasi. – Toshkent. 1974. 236-bet.

Mayli meni qoldir

dard ila yolg'iz

*g'arq bo'lay she'rda*³⁰

She'r – dardning shakli. Shoirga ushbu “dard” Yaratgan tomonidan yuqtirilmas ekan, uning chekkan oh-u zorlari, sitamlari g'amgin noladay eshitilaveradi. Shoir she'rni ya'ni o'zining farzandini, yolg'izlikda yaratadi. buning uchun unga ilhom manbai, iste'dod va ilohiy dard bo'lsa bo'lgani. She'rda shoir g'arq bo'lishni istayotgan narsa -she'r. Demak, u umri davomida she'r bilan qolmoqchi, she'r bilan yashamoqchi. Bu dard tuzalmasada, shoir undan voz kechgisi yo'q.

vaqt qaychisi qiyarkan

tobora umring

bilmaysanki

vaqtmi sening

yo sen vaqtning qo'lida

Eng oliy hakam – Vaqt to'g'risidagi qarashlarini shoir falsafiy yo'sinda taqdim etadi. Vaqtga insonga xos qiymoq harakatini yuklab, go'zal tasviriyy vositaga aylantiradi. Umrning yugurikligini, inson vaqtning izmidami, yohud vaqt inson tasarrufidami? Azaliy savol bilan murojaat qiladi u o'quvchiga.

bir juft so'z kabimiz go'yo ikkimiz

o'z holida mustaqil

ma'no ifoda etmagan

³⁰Shermurod Subhon. Bir juft so'z kabimiz go'yo ikkimiz.// Yoshlik., 2013-yil. 10-son.

Bir qarashda na qofiya, na vazn bordek ushbu she'rda. Ammo, shoir ajoyib so'z o'yini bilan o'quvchisini lol etadi. Lirik qahramon o'zi bilan sevgilisini bir juft so'zga o'xshatadi. Ular aslo ayrilmas, yakka qolsalar, mustaqil ma'no ifoda etmaydilar. Ular bir tanu bir jon.

sen uchun zeb erur

qoshu ko'zga qora tortmoq

men uchun esa husn

vasling vasfida

she'r qoralamoq

Ma'shuqaning chiroyi uning qoshu ko'zi qoraligi bilan o'lchansa, shoir uchun yor vaslini vasf etishdek mas'uliyatli jarayonda she'r qoralamoq eng oliy saodatdir. Qora so'zining ikki xil ma'noda ishlatilishi ya'ni bir so'zni ko'p ma'noda qo'llash san'ati- iychomdan foydalanilgani san'atkorning mahoratidan darak beradi.

ha ne qipti axir

osilsam men ham

Iso kabi

haqiqatning

baland doriga

Birinchi satrdanoq she'rda kishilarga murojaat, iddao qilish kayfiyati seziladi. Shoir o'zini haqiqat kuychisi sifatida tan oladi. Bunda u Haq uchun kurashgan Iso payg'ambarga o'zini tenglashtiradi. Farqi shundaki, Iso alayhissalomga hech kim ishonmaydi, undan haqiqat talab qilaveradilar. Axiyri, qo'l va oyoqlarini xochga mixda qoqib so'nggi imkonni beradilar. Iso esa taslim bo'lmaydi, uning jasadini olish uchun kelganlar hayratdan yoqa ushlaydilar. Iso tirilib osmonu falakka parvoz etadi. Shuning uchun unga nisbatan "masih" – "jon beruvchi, tiriltiruvchi" atamasi qo'llaniladi. Shoir esa yozganlari faqat haqiqat ekanligini va bu

uning uchun eng yuqori martaba ekanligini hech kimdan yashirmaydi. Shu o'rinda O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning quyidagi misralari yodimizga tushadi: “.. Shoiri yolg'on so'zlasa o'ladi el”.

*xato qilding sevib bir
sevmayin ikki...*

Ilk sevgisi muvaffaqiyatsizlikka uchragan va undan keyin kech kimni birinchi muhabbatiga o'xshatolmagan oshiq zori... O'z iztiroblarini atigi olti so'zda ifodalaydi u. Raqamlar orqali so'z o'yini tashkil qiladi. Sevish tuyg'usi insonga faqat bir martagina berilishini uqtirmoqchi bo'ladi shoir.

menga senga yo'l bo'lsin?!

Muhabbat o'tida yonaverib kul bo'lgan oshiq ortiq ul malakning hajrida yonmoqchi emas. Barcha harakatlari besamar ketdi. Endi suyukli yor uning diydorini qo'msaydi. Oshiq esa – mag'rur. U o'z ma'shuqasiga shunday xitob qiladi: menga senga yo'l bo'lsin?!

*o'g'ri kabi poylayman
ko'zing...*

Ko'zlar – dil oynasi. Zabonlar so'zlamasalarda, ko'zlar suhbat quradi. Yagona muammo – otash nigohni ilg'ab , tutib olish. Bir qarashdayoq yorining nima demoqchi ekanligini anglash hamma oshiqlarning ham qo'lidan kelavermaydi.

*siz osmonga bir boqsangiz
bas
soyaga aylanar shu'la*

*siz oynaga boqsangiz bormi
shu'laga aylanar soya*

Tardu aks san'atidan foydalanilgan ushbu she'rda harflar o'ynoqiligi, musiqiyliги bilan ijodkorning boshqa asarlaridan ajralib turadi.

III bob yuzasidan xulosalar

Ushbu bobga yakun yasari ekanmiz, undagi aytilgan fikrlardan quyidagi xulosalarni bayon etishni lozim topdik:

1. Uchlik shakli, avvalo, o'z adabiyotimiz zahirida, og'zaki ijod ta'sirida paydo bo'lgandi. Hozirgi kunda Rauf Parfi, Anvar Obidjon, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Tursun Ali, Farida Afro'z kabi shoirlar ijodida uchlik she'rlar mavjud.
2. Tursun Ali she'riyatida o'zga yo'l ochgan - o'zi mustaqil she'riy janr yaratgan - hech kim yo'l solmagan oppoq qor ustidan yurib o'tgan adibdir. Uning she'rlarida fikr-mulohaza, his-tuyg'u shaklan siqiq, mazmunan yorqin, musiqiy tarzda ifodalanadi. Poetik asardagi obrazlarni kashf qilish esa shu matnning ma'no mag'zini chaqish demakdir. She'ning she'rliги poetik obrazlar zahiridagi ramzlardadir. Ramzlar asosidagi ma'nolar to'liq ochib berilsa tahlil o'z me'yoriga yetadi.
3. Poetik obrazlar asosan, shoir kechinmasining qaysidir jihatini qayd etishga, bo'rttirishga xizmat qiladi. Shermurod Subhonning she'rlarini kuzatganimizda bunday poetik obrazlar ko'plab uchrashining guvohi bo'ldik. Masalan, vaqt, ayriliq, hijron, visol, so'z, dunyo, hayot va hokazo. Bu poetik obrazlar ijodkor "men"iga yaqinlashishimizga, uning botiniy dunyosini kashf qilishimizga ko'mak beradi.

X U L O S A

Bugungi o'zbek she'riyati o'z taraqqiyotining muhim hayotiy hodisalarnitasvirlash va dolzarb muammolarni aks ettirishdan ko'ngil manzaralarini chizish varuhiy holatlarni moddiylashtirish bosqichiga o'tdi. Odamni bilish olamni bilishdanmushkulroq ekanligi anglandi. Binobarin, shu xil xossalarga ega odamning g'oyat

mukarram zotligi tuydirildi. O'zgacha shakllanish va taraqqiyot tamoyillariga ega hozirgi o'zbek she'riyatining qator o'ziga xosliklari mavjuddirki, ayni shu xususiyatlarunga milliy nazmimiz taraqqiyotidagi alohida bosqich sifatida qarash imkoniniberadi.Bu badiiy hodisaga hozirgi o'zbek she'riyati degan nom ozodlikni orzulagani,istiqlol davrida yaratilgani, millat ahlini ozodlikka undagani, mustaqillikni madhqilgani, egaman kishilarning tuyg'ularini aks ettirgani uchungina emas, balkibirinchi navbatda, she'rxonga dunyoni o'rganish bilan birga o'zini, o'z ko'nglini taftish etish lozimligini anglatishga uringani uchun ham berilgan atama ekanliginita'kidlash joiz.

Hozirgi o'zbek she'riyatining , Rauf Parfi, ShavkatRahmon, Azim Suyun, Usmon Azim, Ikrom Otamurod, Tursun Ali, A'zamO'ktam, Muhammad Yusuf, Abduvali Qutbiddin, Eshqobil Shukur, Iqbol Mirzo, Bahrom Ro'zimuhammad, Zebo Mirzo, Farida Afro'z singari vakillariningasarlarida olamni poetik idrok etish yangi bosqichga ko'tarilayotgani namoyonbo'ladi. Hozirgi o'zbek she'riyatida hissiyot qatlamlarini tadqiq etish, odam ruhiyatidagiboy, olis va rangin iqlimlarni poetik kashf etishga intilish kuchaydi. Undako'ngilni tozalashga alohida e'tibor qaratildi.

Mustaqillik davri o'zbek she'riyati shakliy izlanishlar miqyosi kengayganligibilan ham xarakterlanadi. Unda jahon adabiyotidagi samarali tajribalarni o'rganishva boyitishga intilish g'oyat kuchaydi. Ifodada to'liq erkinlikka intilish istagi hozirgio'zbek she'riyatida yangi shakllarga ehtiyoj uyg'otganligi uchun shakliyimkoniyatlarni kengaytirish yo'lidan borilmoqda.

Mustaqillikka erishganimizddan buyonshe'riyat hamma mavzularni tarannum etdi. Lekin ug'oyadan, g'oyaparastlikdan ancha uzoqlashdi. Istiqlol davrida

poeziyadag'oyaparastlik o'z kuchini yo'qotdi. She'riyat hukmron g'oyadan-yagona yetakchimakuradan chekindi. Bu juda muhim faktor. Chunki u davr she'riyatining asosiyxususiyatlaridan biri.

Ayni paytda, hozirgi o'zbek she'riyati faqat ko'ngilning intim kechinmalarinikuylash bilan chegaralanib qolgani ham yo'q. Bugungi o'zbek she'riyati qat'iy shakliy qoliplarni quloqqa moslashishtalabi natijasi hisoblab, chin ko'ngil ifodasiga aylanishga astoydil urinmoqda.Daraxt o'z yaproqlarini yangilab turmasa, o'smagani kabi she'riyat ham tinimsizizlanishlar ichra bo'lmasa, ichki taraqqiyot to'xtab qolishi mumkinligi anglab yetildi.Qanchalik yuksak badiiyat samarasi bo'lmasin, kechagi kun she'riyatibugunning odamini to'la qoniqtirolmaydi. Bugungi odam bugungi adabiyotgamuhtojdir. Bugungi ko'ngil bugunning tuyg'ularini kechirmoq istaydi. Ehtimol,bugungi aqlga oziq bo'ladigan dono fikrlar allaqachonlar aytib qo'yilgan va bugununi yangilash shart emasdir, lekin bugunning ruhini bezovta qiladigan she'riyatbugungiodamning ko'ngil mavjlari. Ya'ni ertangi o'zbek she'riyat o'zini va olamni chuqur o'rganish yo'liga tushgan o'zbek kishisining ko'ngilmanzaralarini yorqin hamda ta'sirli aks ettirishning samarali va o'ziga xosyo'llarini kashf etishiga ishonch hosil qilamiz.

Ko'rinadiki, o'zbek modern shoirlari ijodida fikrni ifodalashdan ko'ra, ruhmanzaralari tasviri ustuvorlik qiladi. Mazkur she'riyatga kutilmagan avangardizlanishlar yot emas, lekin ularda milliy o'ziga xoslik sezilib turadi. Xususan, buholat Faxriyor she'riyatining asosini tashkil etadi. Shoirning she'rlarini takror va

takror o'qib ham ko'nikilgan yaxlit fikr va xulosani ilg'ab olish qiyin.Ruhning holatini aks ettirish uchun ramzlarga, mavhum ishoralargamurojaat qilayotgan Faxriyor, Tursun Ali, Azim Suyun, Abdu Nabi, Ulug'bekHamdam, Go'zal Begim, Sanobar Mehmonova kabi shoirlar ta'siridashe'rxonlarning ham badiiy didi noziklashib bormoqda. Ular she'rdan axborotemas, ichkinlik, tuyg'u ifodasini emas, ishora, uning «parda ortidagi tasviri»ni izlay boshladilar. Shu tariqa, modern she'r shoir bilan o'quvchining birgalikdagiiijodiga aylanmoqda.Istiqloldan keyin

Faxriyorning o'z ruhiyatiga, sof kechinmalari tasviriga e'tibor kuchaydi. Bu she'riy nutqda mavhumlik unsurlari, serqatlam ishoralarining, mavjud shakliy izlanishlarning ortishiga, bu holning, xususan, yoshlar ijodida ko'pchilikka olib keldi. Shunday qilib, zamonaviy o'zbek modern she'riyatidagi yangilanishlarning mohiyati yuzasidan shunday xulosaga kelish mumkinki, birinchidan, o'zbek modern she'rlaridagi shakliy o'zgachalik ma'no teranligini ta'minlashga qaratilgan, ikkinchidan, yangilangan o'zbek she'riyatida so'z xususiylashtirilgan, ya'ni shoir yuklagan ma'noni ifodalaydi, uchinchidan, yangilangan o'zbek poeziyasida vizual she'rlar ko'payib bormoqda, lekin u maqsad emas, yangi, tutilmagan poetik obrazlar yaratish vositasidir, to'rtinchidan, modern she'riyat poetik qonunlardan ko'ra, ijodkor ko'ngli mayllariga bo'ysunadi, beshinchidan, hozirgi o'zbek modern she'rlarida so'z, musiqa va harakatning, ya'ni tasvirlanayotgan holatni o'quvchiga ko'rsatish, eshittirish va his qildirish uyg'unligi hamda muntazamligiga erishib borilayotgani uning badiiy ta'sirini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

O‘zbekiston Respublikasi Prezideni I.A.Karimovning asarlari:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор.— Т., “Ўзбекистон” 2009.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ НМАК, 1998.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
4. Каримов И. Ўзбек халқига тинчлик ва омонлик керак. – Т., “Ўзбекистон” 2013.
5. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. –Т.: O‘zbekiston, 1996. 226-b.

Darslik va o‘quv qo‘llanmalar:

1. Адабиёт назарияси. 2 жилдлик./академик М.Нурмухаммедов тахририостида. 1-жилд. – Тошкент: 1978.
2. Адабиёт назарияси. 2 жилдлик./академик М.Нурмухаммедов тахририостида.2-жилд. – Тошкент: 1979.
3. Аристотель . Поэтика. Ахлоқи кабир. – Т., “Янги аср авлоди”, 2004.
4. Йўлдошев Қозоқбой. Ёниқ сўз. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2006.
5. Расулов А. Бетакрор ўзлик. -Тошкент.“Mumtoz so‘z”. 2009. 187-208 - бетлар.
6. Ҳайитов А. 90-йиллар ўзбек шеъриясида анъана ва услубий изланишлар. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тадим этилган диссертацияавтореферати. Тошкент. 2004.
7. Қаҳҳор Йўлчиев. Поэтик олам сирлари. 2012 йил Тошкент. Академнашр.

8. Haqqulov I. O'zbek adabiyotida ruboiy. Toshkent. 1981. B.97
9. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji.- Toshkent. : Fan, 2007
- 10.O'zbek adabiyoti (7-sinf uchun darslik-majmua)–Toshkent. : O'qituvchinashriyoti, 1997-yil, 112-bet.
- 11.Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. - Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. - Б.160
- 12.Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent. 1974. 236-bet.

Gazeta va jurnallardagi maqolalar:

1. Normatov U. Tafakkurning tozarishi// O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1996. 30-avgust.
2. Sharafiddinov O. Modernizm - jo'n hodisa emas. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2002, 7- iyun
3. Y.Solijonov. Shoir ko'p, ammo she'r-chi?// O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2003. 18-iyul
4. Ochilov E. «Siz she'r aytasizmu yo odam qo'rqitasiz?»// «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi. 2004 yil,17 sentyabr soni.
5. Yo'ldoshev Q. Dastlabki dovon belgilari. // Sharq yulduzi jurnali, 2001-yil, birinchi fasl, 8-bet.
6. Fahriyor. Yulduz kabi jimirlaydi jon.// Yoshlik. 2014-yil, 7-son.
7. Azim Suyun. Ey do'st.// Yoshlik. 2003-yil, 2-son.
8. Espen Xovardsxolm. Modernizm. //Jahon adabiyoti, 2001-yil, 1-son. 197-bet.
9. Гулбаҳор Саидғаниева. Уйғонмадим сенинг кўксингда.// Жаҳон адабиёти. 2009-йил 5-сон.

10. Shermurod Subhon. Bir juft so'z kabimiz go'yo ikkimiz.// Yoshlik., 2013-yil. 10-son.

Badiiy adabiyotlar:

1. Йўлдошев Қ.Улкан туйғуларнинг мўъжаз суратлари. Китобда.Фарида Афрўз. Тасбеҳ. Тошкент, “Шарқ, 2007. –Б.3-10.
2. Алишер Навоий. Асарлар. ХҲ жилдлик. 15-жилд. Т. : 1968
3. Алишер Навоий. Мезон-ул авзон. Асарлар. 14-жилд. Т:1967. Б.157
4. G'afur G'ulom. Asarlar. O'n jildlik. 8-jild. Toshkent.: 1976. B. 412
5. Faxriyor. Ayolg'u. –Т.: Sharq matbaa-kontserni, 2000. 165-bet.
6. Boyqo'ziyev A. Cho'l irog'im.- Toshkent, «O'zbekiston», 2014.
7. Адам Бретон. Манифест сюрреализма. -М.: 1986, ст.40

Интернетмаълумоти

1. www.ziyouz.com
2. www.literature.uz
3. www.kh-davron.uz
4. www.fikr.uz